O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

XOTIN-QIZLAR OILA VA GENDER KOMISSIYASI

THE WORLD BANK
IBRD • IDA | WORLD BANK GROUP

# O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR VA ERKAKLAR: FAKT VA RAQAMLAR

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI

XOTIN-QIZLAR OILA VA GENDER KOMISSIYASI

THE WORLD BANK
IBRD • IDA | WORLD BANK GROUP

# O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR VA ERKAKLAR: FAKT VA RAQAMLAR

TOSHKENT-2024

“O‘zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar: fakt va raqamlar” statistik to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, 2024 – 89 bet.

**Mualliflar:**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor *B.A. Begalov*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi direktorining o‘rinbosari *A.A. Ikramov*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi direktorining o‘rinbosari *Z.M. Ziyayev*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Demografiya, mehnat va gender statistikasi boshqarmasi boshlig‘i, falsafa doktori (PhD) *Z.T. Yuldoshev*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Demografiya, mehnat va gender statistikasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari - Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘yicha yig‘ma tahliliy axborotlarni shakllantirish bo‘limi boshlig‘i *Sh.X. Abrayev*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Demografiya, mehnat va gender statistikasi boshqarmasining Demografiya, mehnat va gender statistikasi bo‘yicha yig‘ma tahliliy axborotlarni shakllantirish bo‘limi bosh mutaxassisi *A.R. Adizov*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Demografiya, mehnat va gender statistikasi boshqarmasining Mehnat statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘limi bosh mutaxassisi *A.T. Tairova*

Muharrir *X.E. Raupova*

Ushbu to‘plamda O‘zbekistonda gender tenglikka erishishni axborot-statistik monitoring qilish uchun foydalaniladigan O‘zbekiston Respublikasining gender statistikasi bo‘yicha milliy ko‘rsatkichlari ularning dinamik qatorlari bilan taqdim etilgan.

Nashrning asosiy maqsadi - gender statistikasini aks ettirish, davlat va jamiyatning keng doiralarini xabardor qilish, shuningdek, mamlakatimizda gender tengligi sohasidagi hozirgi holat va taraqqiyotni ochib berish, aynan qayerda ekanligimizni, nimalarga erishganimizni va bunga erishish uchun yana qanday qo‘shimcha sa’y-harakatlarni amalga oshirish kerakligini yaxshiroq tushunishdir.

“O‘zbekistonda xotin-qizlar va erkaklar: fakt va raqamlar” statistik to‘plami uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining *gender.stat.uz* veb-portalida e’lon qilingan.

# Mundarija

**Kirish so‘zi...…………………..4**

**Qisqartmalar ro‘yxati…………..5**

**Nashrning dolzarbligi……………..6**

**Asosiy ko‘rsatkichlar……………….8**

1. Demografiya………………………8
2. Sog‘liqni saqlash……………………21
3. Ta’lim………………………………...26
4. Jinoyatchilik…………………………..34
5. Ijtimoiy himoya……………………….39
6. Mehnat…………………………………43
7. Turizm………………………………….51
8. Sport…………………………………....55
9. Madaniyat……………………………...58

**Minimal ko‘rsatkichlar…………………..62**

Iqtisodiy resurslar………………………64

Ta’lim……………………………….....73

Sog‘liqni saqlash……………………77

Ijtimoiy ko‘rsatkichlar………….....82

Huquq………………………….84

**Foydali havolalar…………….87**

## Kirish so‘zi

Bugungi kunda gender tengligini ta’minlash jahon hamjamiyati e’tibor qaratayotgan eng muhim masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar gender tengsizlikka barham berish va barcha uchun teng huquq va imkoniyatlarni ilgari surish bo‘yicha faol ish olib bormoqda.

Aynan shu maqsadlarda, mamlakatimizda BMT Bosh Assambleyasining 2015-yil sentabr oyidagi Barqaror rivojlanish bo‘yicha o‘tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo‘yicha tizimli ishlar tashkil etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori bilan “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” (https://lex.uz/ru/docs/5466673), uni amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi hamda “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining maqsadli ko‘rsatkichlari” tasdiqlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda gender tengligini aks ettiruvchi rasmiy statistik ma’lumotlar tarkibi, uslubiyoti xalqaro darajada moslashtirilib doimiy ravishda takomillashtirib borilmoqda. Shuningdek, foydalanuvchilarning ehtiyojlarini qondirish maqsadida ko‘rsatkichlar turli til va formatlarda rasmiy web-sayt (gender.stat.uz), to‘plamlar va boshqa vositalar orqali taqdim etib borilmoqda.

Mazkur to‘plam ham O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori bilan tasdiqlangan “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini 2024-yilda amalga oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi”da (https://lex.uz/ru/docs/6855158) belgilangan vazifalar doirasida ishlab chiqilgan.

To‘plamda mamlakatimizning demografik holati, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, mehnat, turizm, madaniyat, sport kabi sohalardagi gender tenglikni tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar tahlili keltirilgan.

Umid qilamizki, mazkur to‘plam barcha uchun teng imkoniyatlar yaratish, ayollar huquqlarini himoya qilish, kamsitish va zo‘ravonlikka qarshi kurashish sohasida faoliyat va ilmiy izlanishlar olib borayotgan foydalanuvchilar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

**B.A.Begalov**

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi direktori, iqtisod fanlari doktori, professor**

# Qisqartmalar

| | |
|---|---|
| BRM | Barqaror rivojlanish maqsadlari |
| BMT | Birlashgan Millatlar Tashkiloti |
| UNESCO | BMT Ta'lim, Fan va Madaniyat Tashkiloti (UN Educational, Scientific and Cultural Organization) |
| UNICEF | BMT Bolalar Jamg'armasi (UN Children's Fund) |
| UNDP | BMT Taraqqiyot dasturi |
| UNSD | BMT Statistika bo'limi |
| JSST | Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti |
| XMT | Xalqaro mehnat tashkiloti |
| XOQ | Xalqaro Olimpiya qo'mitasi |
| YEIK | Yevrosiyo iqtisodiy komissiyasi |
| MDH | Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi |
| AQSH | Amerika Qo'shma Shtatlari |
| OIV | Odamning immunitet tanqisligi virusi |
| OITS | Orttirilgan immun tanqisligi sindromi |
| AKT | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari |

# O‘ZBEKISTONDA GENDER STATISTIKASI

## Me’yoriy-huquqiy asoslar

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ijtimoiy va iqtisodiy komissiyasining tavsiyalari, ***“Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”***gi 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, ***“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar to‘g‘risida”***gi 2019-yil 2-sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, shuningdek, ***“Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”***gi 2019-yil 7-martda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4235-son Qarori hamda ***“O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”***gi 2020-yil 3-avgustda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4796-son Qarori O‘zbekiston Respublikasida gender statistikasining me’yoriy-huquqiy asoslari hisoblanadi.

2021-yil 28-may sanasida Oliy Majlis Senati tomonidan 2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlangan.

**54 MINIMAL GENDER KO‘RSATKICHLARI**

BMTning Statistika komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan **52 ta** minimal gender ko‘rsatkichlari to‘plami (PQ-4235 son Prezident Qaroriga muvofiq qo‘shimcha **2 ta**) bo‘yicha Statistika agentligining **gender.stat.uz** rasmiy veb-saytida alohida sahifa ochildi hamda mas’ul vazirlik va idoralar belgilab olindi.

**61 MAQSADLI KO‘RSATKICHLAR**

2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining **61 ta maqsadli ko‘rsatkichlari** monitoringi uchun ma’lumotlar veb-saytning alohida sahifasida joylashtirildi.

**+180 KO‘RSATKICH**

**gender.stat.uz** veb-saytida **180** dan ziyod gender statistikasiga oid ko‘rsatkichlar **3 ta** tilda, **5 xil** formatda joylashtirilib, muntazam yangilab borilmoqda.

# O‘ZBEKISTONDA GENDER STATISTIKASI

**gender.stat.uz**

Mas’ul vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda 54 ta minimal gender ko‘rsatkichlari to‘liq shakllantirilib, gender.stat.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirildi va muntazam yangilab borilmoqda. Veb-saytda 5 ta yo‘nalish bo‘yicha 54 ta ko‘rsatkichlardan iborat BMT Statistika komissiyasining tavsiyasiga muvofiq sohalar bo‘yicha gender ko‘rsatkichlarining minimal to‘plami bilan bir qatorda 9 ta yo‘nalish bo‘yicha 90 dan ziyod boshqa ko‘rsatkichlar shakllantirilib, e’lon qilib borilmoqda.

**5 PLATFORMA**

Gender masalalari bo‘yicha xalqaro reyting va indekslarda yetakchi tashkilotlarni milliy gender statistikasi ma’lumotlari bilan ta’minlab borish maqsadida, **stat.uz**, **nsdg.stat.uz**, **aholi.stat.uz** saytlari, **siat.stat.uz** statistika portali, shuningdek, **data.egov.uz** ochiq ma’lumotlar portalida ham gender statistikasiga oid ko‘rsatkichlar tarkibi kengaytirilib, ma’lumotlari muntazam yangilab borilmoqda.

**+550 ming KORXONA va TASHKILOT**

**550 mingdan ortiq** korxona va tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan **27 turdagi** statistika kuzatuvlari asosida shakllantiriladigan qo‘shimcha gender statistikasi ko‘rsatkichlari rasmiy veb-saytining asosiy ko‘rsatkichlar sahifasiga joylashtirilib, tarkibi muntazam kengaytirib borilmoqda.

**+30 STATISTIK KUZATUVLAR**

Vazirlik va idoralarda yuritiladigan ma’muriy ma’lumotlar hamda statistika tizimida mavjud **30 dan ortiq** kuzatuvlar asosida ma’lumotlar tayyorlanib, foydalanuvchilarga taqdim etib borilmoqda.

**www.data.egov.uz**

**www.nsdg.stat.uz**

**www.stat.uz**

**www.siat.stat.uz**

**www.aholi.stat.uz**

Gender tenglikka erishish strategiyasining 61 ta maqsadli ko‘rsatkichlarni tahlil qilish asosida vazirlik va idoralar tomonidan Statistika agentligi bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar, jumladan har bir maqsadli ko‘rsatkichning metama’lumotlarini ishlab chiqish, ma’lumotlarni hududlar, iqtisodiy faoliyat turlari va boshqa kesimlarda ishlab chiqilishini yo‘lga qo‘yish hamda mavjud bo‘lmagan ma’lumotlarni shakllantirish yuzasidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlar to‘g‘risida o‘quv seminarlari tashkil etib borilmoqda.



# DEMOGRAFIYA

1



ASOSIY KO'RSATKICHLAR

# 1. DEMOGRAFIYA

## DOIMIY AHOLI SONI

*2024-yil 1-yanvar holatida, ming kishi*

**36 799,8**

erkaklar: **18 525,0** — 50,3 %

ayollar: **18 274,8** — 49,7 %

| | Jami | Erkaklar | Ayollar |
|---|---|---|---|
| shahar | 18 771,1 | 9 408,5 | 9 362,6 |
| qishloq | 18 028,7 | 9 116,5 | 8 912,2 |

### >>>>>>>>>>>>>>>> TA'RIF <<<

Doimiy aholi soni deganda, ma'lum bir geografik hududda uzoq muddat davomida doimiy yashovchi odamlar soni tushuniladi. Bu ko'rsatkich aholining turli toifalarini, jumladan, bolalar, kattalar va qariyalarni ham o'z ichiga oladi. Doimiy aholi soni statistik ma'lumotlar asosida aniqlanadi va davlat idoralari yoki rasmiy tashkilotlar tomonidan yig'iladi va yangilanadi.

## 43-o'rin

Aholi soni bo'yicha O'zbekiston dunyoda

O'zbekistonda aholi sonining o'sishi kelajakda iqtisodiy o'sish, infratuzilma rivojlanishi va ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirishga bo'lgan talabni kuchaytiradi.

Manba: https://population.un.org/
Ma'lumotlar 2023-yil 1-iyul holatida

## MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA DOIMIY AHOLI SONI, *kishi*

| Davlat | Jami | Erkaklar | Ayollar |
|---|---|---|---|
| QOZOG'ISTON | 20,3 mln | 9,9 mln | 10,4 mln |
| QIRG'IZ RESP. | 7,1 mln | 3,5 mln | 3,6 mln |
| TOJIKISTON | 10,4 mln | 5,1 mln | 5,3 mln |
| TURKMANISTON | 7,4 mln | 3,6 mln | 3,8 mln |

# 1. DEMOGRAFIYA

## DOIMIY AHOLI SONINING HUDUDLAR BO‘YICHA TAQSIMLANISHI

*2024-yil 1-yanvar holatida, ming kishi*

O‘zbekiston Respublikasi .......... **36 799,8**



Ayollar: 18 525,0

Erkaklar: 18 274,8

| Hudud | Jami | Ayollar | Erkaklar |
|---|---|---|---|
| Sirdaryo | 914,0 | 459,1 | 454,9 |
| Navoiy | 1075,3 | 544,8 | 530,5 |
| Jizzax | 1507,4 | 760,6 | 746,8 |
| Xorazm | 1995,6 | 998,9 | 996,7 |
| Qoraqalpog‘iston Resp. | 2002,7 | 1005,9 | 996,8 |
| Buxoro | 2044,0 | 1024,9 | 1019,1 |
| Surxondaryo | 2877,1 | 1455,8 | 1421,3 |
| Toshkent sh. | 3040,8 | 1492,1 | 1548,7 |
| Toshkent | 3051,8 | 1531,6 | 1520,2 |
| Namangan | 3066,1 | 1558,4 | 1507,7 |
| Andijon | 3394,4 | 1719,6 | 1674,8 |
| Qashqadaryo | 3560,6 | 1804,2 | 1756,4 |
| Farg‘ona | 4061,5 | 2049,5 | 2012,0 |
| Samarqand | 4208,5 | 2119,6 | 2088,9 |

### JAMI AHOLIGA NISBATAN:

**AYOLLAR ULUSHI**

49,7 %

2013-yil 1-yanvar: 49,9 %

**ERKAKLAR ULUSHI**

50,3 %

2013-yil 1-yanvar: 50,1 %

**DUNYODA:**

Erkaklar: 50,3% Ayollar: 49,7%

Raqamlar 2023-yil uchun, manba: https://population.un.org/

### TAHLIL

O‘zbekiston aholisining eng zich joylashgan hududlari qatoriga Samarqand viloyati, Toshkent shahri va viloyati, Farg‘ona vodiysi (Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlari) kiradi. Samarqand viloyati mamlakatning eng ko‘p aholi istiqomat qiladigan hududi bo‘lib, 2024-yil 1-yanvar holatida 4,2 million doimiy aholi istiqomat qilmoqda.

Kamroq aholi istiqomat qiladigan viloyatlar esa Sirdaryo, Navoiy va Jizzax viloyatlari bo‘lib, bu hududlarda aholi zichligi nisbatan pastroq.

# AHOLINING TABIIY HARAKATI

**2023-yil, kishi**

## 33-o'rin

Tug'ilishlar soni bo'yicha O'zbekiston dunyoda

BMT tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, tug'ilishlar soni dunyoda 2023-yilda 132 millionni tashkil qildi. Hindiston (23,2 million tug'ilish), Xitoy (8,9 million tug'ilish) va Niger (7,5 million tug'ilish) ushbu ro'yxatda yuqori uchlikni tashkil etmoqda.

Shu bilan birga 2023-yilda dunyo bo'yicha 61,7 million nafar o'lim qayd etilgan bo'lib, tabiiy o'sish +70,3 million kishini tashkil qilgan.

Manba: https://population.un.org/

### >>>>>>>>>>>>> IZOH <<

Aholining tabiiy harakatiga turli omillar ta'sir qilishi mumkin.

Birinchidan, sog'liqni saqlash tizimining holati va tibbiy xizmatlarning sifatli bo'lishi tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi. Ikkinchidan, iqtisodiy sharoitlar, ish bilan ta'minlash darajasi va yashash sharoitlari aholi soninig o'sishi yoki kamayishiga ta'sir etishi mumkin. Uchinchidan, ijtimoiy va madaniy omillar, jumladan, oilaviy an'analar va turmush tarzi ham aholining tabiiy harakatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

## TUG'ILISH:

**961 962** — +3,2 % 2022-yilga nisbatan

Erkaklar: **498 245** — +3,3 % 2022-yilga nisbatan

Ayollar: **463 717** — +3,1 % 2022-yilga nisbatan

## O'LIM:

**172 757** — +0,4 % 2022-yilga nisbatan

Erkaklar: **95 006** — -0,01 % 2022-yilga nisbatan

Ayollar: **77 751** — + 0,9 % 2022-yilga nisbatan

## TABIIY O'SISH:

**+789 205** — +3,8 % 2022-yilga nisbatan

Erkaklar: **+403 239** — +4,1 % 2022-yilga nisbatan

Ayollar: **+385 966** — +3,5 % 2022-yilga nisbatan

Ma'lumot uchun:

2022-yilda tabiiy ko'payish shunchani tashkil qilgan: **+760,1** ming kishi

## AHOLINING O'RTACHA YOSHI, yosh




## BA'ZI MDH DAVLATLARIDA AHOLINING O'RTACHA YOSHI, yosh




Raqamlar 2023-yil uchun. Manba: https://worldpopulationreview.com/

Dunyo miqyosida o'rtacha yosh:

**31,8**

30,9 32,6

Ayollar va erkaklar o'rtasidagi o'rtacha yosh farqlari sog'liqni saqlash va ijtimoiy siyosatda alohida yondashuvlarni talab qiladi. Ayollar odatda erkaklarga nisbatan uzoqroq yashashadi, bu esa ayollar uchun maxsus sog'liqni saqlash dasturlari va keksayganda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xizmatlariga ehtiyojni oshiradi.

ASOSIY KO'RSATKICHLAR

# 1. DEMOGRAFIYA

## AHOLINING YOSH TARKIBI

*2024-yil 1-yanvar holatiga, ming kishi*

| Guruh | Jami | Erkaklar | Ayollar |
|---|---|---|---|
| Go'daklar: 5 yoshgacha | 4 370,8 | 2 262,7 | 2 108,1 |
| Bolalar: 5-13 yosh | 6 118,4 | 3 178,3 | 2 940,1 |
| Yoshlar: 14-30 yosh | 9 640,0 | 4 939,8 | 4 700,2 |
| O'rta yoshdagilar: 31-59 yosh | 13 202,8 | 6 567,3 | 6 635,5 |
| Keksalar: 60 dan yuqori | 3 467,8 | 1 576,9 | 1 890,9 |

**10%**

Dunyoda har o'n ayoldan bittasining yoshi 65 dan yuqori.

BMT Prognozlariga ko'ra, 2050-yilgacha dunyo bo'yicha har o'n ayolning deyarli ikki nafarining (18 %) yoshi 65 dan yuqori bo'ladi.

Manba: The gender snapshot 2023, UN WOMAN

**>>>>>>>>>>>> TAHLIL**

Aholi tarkibida keksayish tendensiyasi kuzatilayotgan davlatlar uchun pensiya tizimi, sog'liqni saqlash xizmatlari va keksalarni qo'llab-quvvatlash muhim bo'lib, bu sohalarga ko'proq e'tibor qaratish zarur. Keksaygan aholiga ega davlatlar uzoq muddatli ijtimoiy siyosat ishlab chiqishi kerak.

## AHOLINING YOSH TARKIBI

*2024-yil 1-yanvar holatiga,%*

| Guruh | Erkaklar | Ayollar |
|---|---|---|
| 5 yoshgacha | 12,2 | 11,5 |
| 5-13 yosh | 17,2 | 16,1 |
| 14-30 yosh | 26,7 | 25,7 |
| 31-59 yosh | 35,5 | 36,3 |
| 60 dan yuqori | 8,4 | 10,4 |

# 1. DEMOGRAFIYA

## AHOLINING MEHNATGA LAYOQATI BO'YICHA TAQSIMLANISHI, %




32,0 — Mehnatga layoqatli yoshdan kichik

56,4 — Mehnatga layoqatli yoshdagi

11,6 — Mehnatga layoqatli yoshdan katta




33,0 — Mehnatga layoqatli yoshdan kichik

58,5 — Mehnatga layoqatli yoshdagi

8,5 — Mehnatga layoqatli yoshdan katta




31,0 — Mehnatga layoqatli yoshdan kichik

54,2 — Mehnatga layoqatli yoshdagi

14,8 — Mehnatga layoqatli yoshdan katta

### >>>>>>>>>>>> TAHLIL

Mehnatga layoqatli aholining ulushi yuqori bo'lishi mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Bu ko'rsatkich ishchi kuchining mavjudligini, iqtisodiy o'sish va taraqqiyot uchun zarur resurslarni ta'minlaydi. Shuningdek, mehnat bozoridagi gender tenglik darajasini ham ko'rsatadi, bu esa jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini belgilaydi. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi mehnatga layoqatlilikdagi farq, ayollarning ishchi kuchiga qo'shilishi va iqtisodiyotdagi rolini oshirish zaruratini ifodalaydi.

**2023-yilda dunyoda mehnatga layoqatli aholi ulushi, %**

60,9

73,1 (erkaklar) — 48,7 (ayollar)

Manba: https://ilostat.ilo.org/

## 20-29 YOSHLI DOIMIY AHOLI SONI

***2024-yil 1-yanvar holatiga,** ming kishi*

Respublika bo'yicha: **5 513,4**

2 822,2 (erkaklar)

2 691,2 (ayollar)

### Umumiy aholiga nisbatan,%






15,2



14,7

ASOSIY KO'RSATKICHLAR

# 1. DEMOGRAFIYA

## TUG'ILISHNING YIG'INDI KOEFFITSIYENTI

*bir ayolga to'g'ri keladigan bolalar soni*

2023-yil **3,45**

Shahar: **3,39**

Qishloq: **3,51**




**49-o'rin**

Tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti bo'yicha O'zbekiston dunyoda

Jahon Bankining 2022-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston tug'ilishning yig'indi koeffitsiyenti bo'yicha 210 mamlakat orasida 49-o'rinda turadi. Bu ko'rsatkich mamlakatning tug'ilish darajasini boshqa davlatlar bilan solishtirishda o'rtacha darajada ekanligini ko'rsatadi. O'zbekistonda har bir ayol o'rtacha 3,3 farzand ko'radi, bu esa mamlakatning aholi sonini barqaror o'sishiga imkon beradi.

Manba: https://data.worldbank.org

## BA'ZI DAVLATLARDA TUG'ILISHNING YIG'INDI KOEFFITSIYENTI

| | |
|---|---|
| QOZOG'ISTON | 3,05 |
| QIRG'IZ RESP. | 2,80 |
| TOJIKISTON | 3,14 |
| TURKMANISTON | 2,62 |
| ROSSIYA FEDERATSIYASI | 1,42 |
| YAPONIYA | 1,26 |
| XITOY | 1,18 |
| JANUBIY KOREYA | 0,78 |

Ma'lumotlar 2022-yil uchun. Manba: https://data.worldbank.org

# TUG'ILISHDA KUTILAYOTGAN UMR DAVOMIYLIGI

*yosh*

**74,7**

| | Erkak | Ayol |
|---|---|---|
| shahar, 2023-yil | 72,6 | 77,5 |
| qishloq, 2023-yil | 72,3 | 76,0 |

| Yil | Umumiy | Erkak | Ayol |
|---|---|---|---|
| 2015-yil | 73,6 | 71,2 | 76,0 |
| 2020-yil | 73,4 | 71,2 | 75,5 |
| 2023-yil | 74,7 | 72,5 | 76,9 |

Bu ko'rsatkichlar xalqaro miqyosda o'rta darajada hisoblanadi va aholining sog'liq darajasi hamda hayot sharoitlarining yaxshi ekanligini ko'rsatadi.

## Dunyo bo'yicha:

| umumiy | erkak | ayol |
|---|---|---|
| 73,2 | 70,5 | 75,9 |

Ushbu infografikalarni tayyorlashda BMTning aholi statistikasi bo'yicha ma'lumotlar portalidan foydalanilgan, ma'lumotlar 2023-yil uchun.

Manba: https://population.un.org/

| Mamlakat | Umumiy | Erkak | Ayol |
|---|---|---|---|
| ROSSIYA FEDERATSIYASI | 73,2 | 67,3 | 79,0 |
| YAPONIYA | 84,7 | 81,7 | 87,7 |
| GERMANIYA | 81,4 | 79,0 | 83,8 |
| TURKIYA | 77,2 | 74,5 | 79,9 |
| QOZOG'ISTON | 74,4 | 70,1 | 78,4 |

### >>>>>>>>>>>> TAHLIL

Tug'ilishda kutilayotgan umr davomiyligi ahamiyati shundaki, bu ko'rsatkich davlatdagi umumiy sog'liq darajasi, hayot sifatini, tibbiy xizmatlarni va turmush sharoitlarini aks ettiradi. Bu ko'rsatkich aholining umumiy farovonligi va ijtimoiy taraqqiyoti darajasini baholashda muhimdir.

Shu sababli, bu ko'rsatkichni oshirish davlat siyosati va strategiyasining muhim qismi hisoblanadi. Bu ko'rsatkich orqali davlatlar aholining sog'lom va farovon hayot kechirishini ta'minlash uchun qanday choralar ko'rayotganini ham kuzatish mumkin.

# VAFOT ETGANLARNING ASOSIY O‘LIM SABABLARI

*2023-yil, har 100 000 aholiga*

**518,4** *– jami vafot etgan erkaklar*

*jami vafot etgan ayollar* – **429,9**

| O‘lim sababi | Erkaklar | Ayollar |
|---|---|---|
| Qon aylanish tizimi kasalliklari | 323,2 | 275,6 |
| Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlar | 37,4 | 13,8 |
| O‘simtalar | 40,1 | 43,9 |
| Nafas olish organlari kasalliklari | 25,4 | 20,6 |
| Ovqat hazm qilish organlari kasalliklari | 24,2 | 16,8 |
| Boshqa kasalliklar | 68,2 | 59,2 |

## TAHLIL

Yuqoridagi infografikada O‘zbekistonda vafot etganlarning asosiy o‘lim sabablari ko‘rsatilgan. Dunyoda ham asosiy o‘lim sabablari o‘xshash bo‘lib, qon aylanish tizimi kasalliklari, o‘simtalar va nafas olish organlari kasalliklari yetakchi o‘rinda turadi.

Biroq, O‘zbekistonda qon aylanish tizimi kasalliklari ancha yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, bu sog‘liqni saqlash tizimi va hayot tarzidagi xususiyatlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. O‘zbekistonga xos yana bir xususiyat – ovqat hazm qilish organlari kasalliklarining sezilarli darajada yuqori ekanligidir. Bu aholining oziqlanish odatlari va tibbiy yordamning sifati bilan izohlanishi mumkin.

# AHOLINING YOSH GURUHLARI BO‘YICHA O‘LIM KOEFFITSIYENTLARI

*2023-yil, har 1 000 aholiga*

| KO‘RSATKICHLAR | ERKAKLAR | AYOLLAR |
|---|---|---|
| JAMI | 5,184 | 4,299 |
| 0-4 yosh | 2,969 | 2,359 |
| 5-9 yosh | 0,592 | 0,429 |
| 10-14 yosh | 0,504 | 0,335 |
| 15-19 yosh | 0,837 | 0,620 |
| 20-24 yosh | 0,888 | 0,578 |
| 25-29 yosh | 0,807 | 0,535 |
| 30-34 yosh | 0,955 | 0,673 |
| 35-39 yosh | 1,548 | 0,990 |
| 40-44 yosh | 2,562 | 1,528 |
| 45-49 yosh | 4,609 | 2,706 |
| 50-54 yosh | 6,971 | 4,307 |
| 55-59 yosh | 12,103 | 7,131 |
| 60-64 yosh | 19,011 | 11,296 |
| 65-69 yosh | 29,471 | 19,054 |
| 70-74 yosh | 41,416 | 29,061 |
| 75-79 yosh | 63,601 | 45,249 |
| 80-84 yosh | 118,186 | 89,788 |
| 85 yosh va kattalar | 232,908 | 199,797 |

## >>>>>>>>>>>>> TAHLIL

Ushbu jadvalda O‘zbekistonda yosh guruhlari bo‘yicha o‘lim koeffitsiyenti ko‘rsatilgan. Eng yuqori o‘lim koeffitsiyenti 85 yosh va undan katta yoshdagilar orasida. Shuningdek, koeffitsiyent 60-64 yoshdan boshlab oshib boradi, yosh bolalar (0-4 yosh) orasida ham yuqori. Erkaklar orasida o‘lim koeffitsiyenti ko‘plab yosh guruhlarida ayollarnikidan yuqori.

**37 /1000**

2023-yilda dunyoda har 1000 tug‘ilishga nisbatan 5 yoshgacha bolalar o‘limi 37 tani tashkil qilmoqda

Bu ko‘rsatkich 1990-yildan buyon deyarli 59%ga kamaydi. Bu pasayishga qaramay, bolalar o‘lim darajasi hali ham yuqori bo‘lib qolmoqda, ayniqsa, Janubiy va Markaziy Afrika va Janubiy Osiyoda, bu hududlar 2022-yilda dunyodagi barcha 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limlarining 80 % dan ko‘pini tashkil qildi.

Manba: https://population.un.org/
https://blogs.worldbank.org/

# QAYD ETILGAN NIKOHLAR VA NIKOHDAN AJRALISHLAR

**2023-yil**

**283 808**
Qayd etilgan nikohlar soni

**49 198**
Nikohdan ajralishlar soni




## TAHLIL

Bu ko'rsatkichlar jamiyatning ijtimoiy barqarorligi va demografik dinamikasini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Nikoh va ajralishlar ko'rsatkichlari jamiyatda oilaviy tuzilmalar, iqtisodiy sharoitlar va madaniy me'yorlar haqida ko'p narsani ochib beradi. Masalan, yuqori ajralish darajasi oilaviy ziddiyatlar, iqtisodiy qiyinchiliklar yoki madaniy o'zgarishlarni ko'rsatishi mumkin.

## 1-MARTA NIKOHLANUVCHILARNING O'RTACHA YOSHI

**26,3 yosh**
Dunyoda: 30,5 yosh

**21,9 yosh**
Dunyoda: 24,6 yosh

2023-yilda dunyo bo'yicha birinchi marta nikoh tuzishning o'rtacha yoshi ayollar uchun 24,6 yosh, erkaklar uchun esa 30,5 yoshni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha sezilarli farq qiladi. Yevropa mamlakatlarida ayollar va erkaklar o'rtacha nikoh yoshi nisbatan yuqori hisoblanadi. Masalan, Shveytsariyada birinchi nikoh yoshi ayollar uchun 30,9 yosh, erkaklar uchun esa 33,1 yoshga teng. Dunyoning boshqa rivojlangan mamlakatlarida ham ushbu xususiyat kuzatiladi. Chunki, yuqori darajada rivojlangan mamlakatlarda ta'lim va karyera imkoniyatlari yuqori bo'lganligi sababli, yoshlar nikohni kechiktiradi.

Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda nikoh yoshi nisbatan past darajada qayd etilmoqda. Ushbu ko'rsatkich madaniy va ijtimoiy qadriyatlar bilan ham bog'liq hisoblanadi.

Manba: https://genderdata.worldbank.org

## AHOLI MIGRATSIYASI

**2023-yil**

| Xorijdan ko'chib kelganlar, kishi | Xorijga ko'chib ketganlar, kishi |
|---|---|
| 2 955 | 17 336 |
| Erkaklar: 1 473; Ayollar: 1 482 | Erkaklar: 8 270; Ayollar: 9 066 |

### TAHLIL

2023-yilda O'zbekistonga doimiy yashash uchun xorijdan ko'chib kelganlar soni 2 955 kishini tashkil etdi, ulardan 1 482 nafari ayollar va 1 473 nafari erkaklar. Shu yilda O'zbekistondan ko'chib ketganlar esa 17 336 kishini, shu jumladan 9 066 ayol va 8 270 erkakni tashkil etdi. Bu migratsiya statistikasi O'zbekistonda tashqi migratsiya balansi salbiy ekanini ko'rsatmoqda, ya'ni mamlakatdan chiqib ketuvchilar soni keluvchilardan ancha ko'p.

**184 mln**

Dunyo miqyosida 2023-yilda o'z vatanidan tashqarida yashagan aholi soni

Dunyo miqyosida 2023-yilda 184 million kishi (dunyo aholisining 2,3 foizi) o'z vatani tashqarisida yashagan, bu ko'rsatkich global migratsiyaning qanchalik keng tarqalganini ko'rsatadi. Ulardan 37 millioni qochqinlar hisoblanadi va migratsiyaning katta qismi past va o'rta daromadli mamlakatlarda amalga oshmoqda. Ushbu tendensiyalar iqtisodiy nomutanosiblik, demografik o'zgarishlar va iqlim o'zgarishlari kabi omillar bilan bog'liq.

Manba: IOM Global Migration Data Portal, 2023



# SOG‘LIQNI SAQLASH

# 2

# HOMILADOR AYOLLAR VA TUG‘RUQDAGI AYOLLARNING SHIFOXONA O‘RINLARI BILAN TA’MINLANGANLIGI

*2023-yil, 10 000 ayolga nisbatan (15-49 yosh)*

**Respublika bo‘yicha 19,2**




## TAHLIL

Bu ko‘rsatkich ayollar salomatligini saqlash va ularning tibbiy yordamga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim ahamiyatga ega. Tug‘ruqdagi va homilador ayollarning shifoxona o‘rinlari bilan ta‘minlanishi tibbiy xizmatlarning sifatini oshirishga yordam beradi.

Homilador ayollar va yangi tug‘ilgan chaqaloqlar uchun malakali tibbiy yordam ko‘rsatilishi orqali ularning sog‘lig‘i yaxshilanadi. Bu esa chaqaloqlar o‘limini kamaytirishga xizmat qiladi.

Sog‘liqni saqlash tizimining yaxshi rivojlanganligi aholining umumiy sog‘lig‘iga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlaydi.

## BOLA OLDIRISHLAR

***1 000 ayolga nisbatan (15-49 yosh)***

**4,0**

***2023-yil***




**39,0**

JSST ma'lumotlariga ko'ra, Dunyoda 15-49 yoshdagi har 1000 ayolga nisbatan to'g'ri keladigan bola oldirishlar soni 39 tani tashkil etadi.

Jahon Sog'liqni saqlash Tashkiloti baholashicha, 2015-2019-yillar mobaynida 15-49-yosh oralig'idagi har 1000 nafar ayolga to'g'ri keladigan bola oldirishlar soni deyarli 39 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich turli mamlakatlarda turlicha farqlanadi. O'zbekistonda bu ko'rsatkich ancha quyi darajada ekanligini ko'rish mumkin.

**Manba:** https://who.int/data

### >>>>>>>>>>>>>>>>>>>> TAHLIL <<<<<<

Yuqoridagi raqamlar O'zbekistonda bola oldirish ko'rsatkichlari vaqt davomida kamayib borayotganini ko'rsatadi, bu esa sog'liqni saqlash tizimining rivojlanishi va ayollarning reproduktiv salomatligi borasidagi yutuqlarni ifodalaydi.

Ushbu ko'rsatkich onalar va bolalar uchun ko'rsatiladigan tibbiy xizmatlarning qanchalik sifatli ekanini va reproduktiv salomatlik bo'yicha amalga oshirilayotgan dasturlarning qanchalik samarali ekanligini ko'rsatadi.

## KONTRASEPTIVLARNI QO'LLASH

***2023-yil, 100 ayolga nisbatan (15-49 yosh)***

| Bachadon ichi spirali | | Gormonal preparatlar | |
|---|---|---|---|
| **41,2** | 2022-yil: 41,5 | **0,8** | 2022-yil: 1,7 |

Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra dunyoda 15-49 yoshli ayollarda kontraseptivlarni qo'llash darajasi 55,7 % ni tashkil qiladi (2019-yil). Nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Xitoy (2017-yil, 80,5 %), Hindiston (2017-yil, 56,4 %) va AQSH (2018-yil, 66,1 %) kabi davlatlarda qayd etilgan.

Manba: https://genderdata.worldbank.org/

# AHOLINING AYRIM YUQUMLI KASALLIKLARGA CHALINISHI

*2023-yil, 100 000 aholiga nisbatan*

**O‘tkir ichak kasalliklari**
146,6
121,5

**Shu jumladan:**

**Bakterial dizenteriya**
2,1
2,3

**Virusli gepatitlar**
167,1
154,5

**Skarlatina**
6,3
5,6

**Suvchechak**
16,0
16,0

**Gripp**
15,7
13,7

**Yuqori va quyi nafas yo‘llarining o‘tkir infeksiyalari**
1 696,0
1 693,6

**Epidemik parotit**
0,5
0,3

## IZOH

Ayrim yuqumli kasalliklarga chalinish bo‘yicha erkak va ayollar o‘rtasida sezilarli farqlar kuzatiladi, chunki erkaklar ko‘pincha ko‘proq tashqi muhit bilan aloqada bo‘lishadi, ayollar esa immunitet tizimi va biologik xususiyatlari tufayli ba’zi kasalliklarga ko‘proq chidamli bo‘lishlari mumkin.

# TIBBIYOT MUASSASALARIDAGI SHIFOKOR XODIMLARNING JINSI BO‘YICHA TAQSIMLANISHI

*2023-yil oxiriga, jamiga nisbatan foizda*

## Jami vrachlar:




## O‘rta tibbiy xodimlar:




Dunyoda jami vrachlarga nisbatan ayollar ulushi:

**40%**

Shuningdek, o‘rtacha 70-80% hamshira va o‘rta tibbiy xodimlar ayollardir.

Bu raqamlar sog'liqni saqlash tizimidagi gender muvozanatini ko'rsatadi, chunki ayollar ko'pincha tibbiy yordam ko'rsatish jarayonida katta rol o'ynaydilar.

### >>>>>>>>>>>>>>>>>>>>> TAHLIL <<<<<<

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ayollarning tibbiy rahbarlik lavozimlarida ishtirokini oshirish ham sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligini oshirishi mumkin. Xalqaro tashkilotlar, jumladan Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkiloti gender tenglikni targ‘ib qilish va ayollarning tibbiy rahbarlik lavozimlariga kirishini ta‘minlash uchun ko‘rsatmalar bergan.

O‘zbekistonda bu masalaga ham e’tibor berilmoqda, tibbiyot tizimida gender tenglikni rag‘batlantirish va shifokorlar o‘rtasida diversifikatsiya jarayonlari davom ettirilmoqda. Bu orqali bemorlarga yaxshiroq parvarish, moslashuvchan xizmatlar va kuchli jamoa ishlashini ta‘minlash mumkin bo‘ladi.



**Manbalar:**
https://harvardpublichealth.org
https://www.who.int/data

# TA'LIM

3



# TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIM OLAYOTGAN O‘QUVCHILAR SONI

*2023-yil, ming kishi*

| | Erkak | Ayol | Erkak, % | Ayol, % |
|---|---|---|---|---|
| **Maktabgacha ta’lim** tashkilotlarida, *yil oxiriga* | 887,0 | 619,5 | 58,9 % | 41,1 % |
| **Umumiy o‘rta ta’lim** tashkilotlarida, *o‘quv yili boshiga* | 3 410,4 | 3 234,7 | 51,3 % | 48,7 % |
| **O‘rta maxsus ta’lim** tashkilotlarida | 19,0 | 13,5 | 58,4 % | 41,6 % |
| **Professional ta’lim** tashkilotlarida, *o‘quv yili boshiga* | 188,5 | 186,5 | 50,3 % | 49,7 % |
| **Oliy ta’lim** tashkilotlarida, *o‘quv yili boshiga* | 657,9 | 656,6 | 50,0 % | 50,0 % |

UNESCO va UNICEF kabi xalqaro tashkilotlar jinsiy tenglikni ta'lim statistikasi tahlilida asosiy indikator sifatida e'tirof etadi.

Ushbu tashkilotlar o‘quvchilar va talabalarning jinsiy bo‘linishini diqqat bilan kuzatish, har bir bosqichda (boshlang‘ich, o‘rta, oliy ta'lim) jinslar o‘rtasidagi farqlarni aniqlashni tavsiya etadi.

# TA'LIM TASHKILOTLARIDAGI PEDAGOG XODIMLARNING JINSI BO'YICHA SONI VA ULUSHI

*2023/2024-o'quv yili boshiga, ming kishida*

## Umumiy o'rta ta'lim

Erkaklar: 165,3 (30,1 %)

Ayollar: 383,3 (69,9 %)

## Professional ta'lim

Erkaklar: 9,5 (42,8 %)

Ayollar: 12,7 (57,2 %)



## O'rta maxsus ta'lim

Erkaklar: 1,3 (42,4 %)

Ayollar: 1,9 (57,6 %)

## Oliy ta'lim

Erkaklar: 24,7 (54,6 %)

Ayollar: 20,5 (45,4 %)

XMT pedagoglar o'rtasida jinsiy tenglikni ta'minlash uchun maxsus siyosatlarni ishlab chiqishni tavsiya etadi. Bu, masalan, ayollar va erkaklar uchun teng maosh, ish sharoitlari, malaka oshirish imkoniyatlari kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

BMT ta'lim sohasida erkak va ayollarni ishga olish va ularning kasbiy rivojlanishi jarayonida teng imkoniyatlarni berishni tavsiya qiladi. Bunda o'qituvchilarni rahbarlik lavozimlariga tayinlash kabi ko'rsatkichlarni jinsiy bo'linish asosida tahlil qilish zarur.

## TAHLIL

Ta'lim tashkilotlaridagi pedagog xodimlar jinsi bo'yicha tahlil qilinganda, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida nisbatan ko'proq ayollar ishlashini ko'rish mumkin (jami pedagog xodimlarning 69,9 % qismi), shu bilan birga, o'rta maxsus (jamiga nisbatan ayol xodimlar 57,6 %) va professional (jamiga nisbatan ayol xodimlar 57,2 %) ta'lim tashkilotlarida ham ayol pedagoglar ulushi yuqori. Faqat oliy ta'lim tashkilotlarida ishlovchi erkak pedagoglarning soni ayollarnikiga nisbatan 9,2 % ga yuqori.

# HUDUDLAR KESIMIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALAR SONI

*2023-yil oxiriga, ming kishi*



| | Jami | Erkak | Ayol |
|---|---|---|---|
| O'zbekiston Respublikasi | 1 506,5 | 887,0 | 619,5 |
| Sirdaryo | 36,6 | 20,0 | 16,6 |
| Navoiy | 50,1 | 31,7 | 18,5 |
| Jizzax | 66,6 | 35,6 | 31,0 |
| Xorazm | 86,5 | 47,1 | 39,4 |
| Qoraqalpog'iston Resp... | 87,7 | 55,8 | 31,9 |
| Buxoro | 89,1 | 56,7 | 32,4 |
| Surxondaryo | 107,0 | 71,9 | 35,1 |
| Qashqadaryo | 107,4 | 63,8 | 43,7 |
| Toshkent | 118,0 | 69,5 | 48,5 |
| Namangan | 120,8 | 64,7 | 56,1 |
| Andijon | 142,2 | 75,0 | 67,2 |
| Toshkent sh. | 151,3 | 96,0 | 55,3 |
| Samarqand | 158,0 | 97,6 | 60,4 |
| Farg'ona | 185,1 | 101,8 | 83,3 |

**61,3 %** (o'g'il bolalar)

**60,4 %** (qiz bolalar)

Dunyoda 2020-yilda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning shuncha qismi ta'lim tashkilotlariga qamrab olingan

UNESCO Statistika instituti ma'lumotlariga ko'ra, ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlarda yuqori darajada shakllangan. 2020-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning 60,9 % qismi ta'lim tashkilotlariga qamrab olingan. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 44,0 % ga teng bo'lgan.

Manba: https://data.unicef.org

## IZOH

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga asosan an'anaviy usulda qarov va tarbiya beriladi. Bu holatni onalarning aksariyat qismi bolalarini o'z qo'li bilan tarbiyalashni afzal ko'rishi bilan izohlash mumkin. Shuningdek, O'zbekiston oila instituti mustahkamligi bilan ajralib turadi. Ko'plab o'zbek oilalarida bobo va buvilar nevaralarini tarbiyalash va ularga ta'lim berish jarayonida faol ishtirok etadilar. Shu sababli, maktabgacha ta'limga qamrov darajasi yuqori darajada bo'lmasa-da, bolalar oilaviy muhitda rivojlanish va tarbiya olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

# MAKTABDAN TASHQARI TASHKILOTLARDA PEDAGOG XODIMLARINING JINSI BO‘YICHA ULUSHI, *yil oxiriga, %*

| Ko‘rsatkichlar | 2018-yil | 2019-yil | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil: |
|---|---|---|---|---|---|---|
| ayollar | 82,1 | 82,5 | 80,5 | 82,1 | 81,0 | 82,7 |
| erkaklar | 17,9 | 17,5 | 19,5 | 17,9 | 19,0 | 17,3 |

Pedagog xodimlarning jinsi bo‘yicha taqsimlanishidagi farqning kamayishi, ayniqsa, maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlarida, ta’lim sifatini oshirish va o‘quvchilar uchun gender nuqtai nazaridan muvozanatli o‘quv muhiti yaratishda muhim rol o‘ynaydi.

# KOMPYUTER KO‘NIKMASI VA AKT BO‘YICHA TA’LIM OLAYOTGAN O‘QUVCHILARNING JINSI BO‘YICHA TAQSIMLANISHI, %

***2023/2024-o‘quv yili boshiga***

## Akademik litsey



59,6

40,4

## Kasb-hunar maktabi



71,9

28,1

## Kollej



21,3

78,7

## Texnikum



32,6

67,4

**TAHLIL**

Kompyuter ko‘nikmalari va AKT sohasida ta’lim olayotgan o‘quvchilarning jinsi bo‘yicha teng taqsimlanishi, nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki gender tengligiga asoslangan raqamli kelajakni qurishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o‘quvchilarga kasbiy rivojlanishda keng imkoniyatlar yaratish bilan birga, AKT sohasida ishlashga tayyor qiz va o‘g‘il bolalarni tayyorlashda muhim rol o‘ynaydi.

# ILMIY-TADQIQOT VA TAJRIBA-KONSTRUKTORLIK ISHLANMALARINI BAJARGAN TADQIQOTCHI-MUTAXASSISLAR SONI

*2023-yil oxiriga, kishi*

**Jami ilmiy tadqiqot va izlanishlar olib boruvchi mutaxassis-tadqiqotchilar:**




## FAN DOKTORI:

jami: **2 973**




## FAN NOMZODI:

jami: **5 616**



# TAYANCH DOKTORANTURADA TAHSIL OLUVCHILARNING SONI, QABUL VA BITIRUVCHILAR

*2023-yil oxiriga, kishi*

| | Jami | Erkaklar | Ayollar |
|---|---|---|---|
| Doktorantlar soni | 7 323 | 3 880 | 3 443 |
| Doktoranturaga qabul qilinganlar | 3 613 | 1 755 | 1 858 |
| Doktoranturani bitirganlar | 1 424 | 845 | 579 |

## TAHLIL

Xalqaro tashkilotlarning tavsiyalariga muvofiq gender tengligi siyosatlarini yanada takomillashtirish zarur. Ayol doktorantlarning qabulini oshirish va ularni ilmiy faoliyatda qo'llab-quvvatlash uchun aniq choralar ko'rish kerak. Shuningdek, doktorantura bosqichida gender tengligini ta'minlash uchun yangi loyihalar ishlab chiqish lozim.

**43,1 %**

Dunyoda 2022-yilda oliy ta'lim muassasalarida ishlaydigan o'qituvchilar va ilmiy xodimlar orasida ayollar ulushi

Qayd etib o'tish joizki, ilmiy faoliyatda ham ayollar va erkaklar orasidagi farq yildan-yilga kamayib bormoqda. UNESCO Statistika instituti ma'lumotiga ko'ra, Dunyoda oliy ta'lim muassasalarida ishlaydigan o'qituvchilar va ilmiy xodimlar orasida ayollar ulushi 1975-yilda 31,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilda 39,1 % ga yetgan va 2022-yilda 43,1 % ni tashkil etgan. Tahlillarda bu ko'rsatkich postsovet davlatlarida yuqori darajada ekani ko'rinadi. Masalan, Rossiya Federatsiyasida 62,0 %, Qozog'istonda 65,3 %, Belarusda 65,8 % ekani qayd etilgan va bu raqamlar dunyo mamlakatlarining aksariyatinikidan yuqoridir.

Manba: https://uis.unesco.org

# OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN CHET ELLIK TALABALARNING JINSI BO'YICHA ULUSHI, %




UNESCO va BMT kabi xalqaro tashkilotlar turli hisobotlarda ta'limda gender tengligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratadilar. Xususan, chet ellik talabalar orasida jinsiy tenglikni qo'llab-quvvatlash, xalqaro ta'limda ko'proq ayollar va qizlar ishtirokini rag'batlantirish tavsiya etiladi. Bu nafaqat gender tengligini mustahkamlaydi, balki turli madaniyatlar va tillar o'rtasida o'zaro tushunishni oshiradi.

## XULOSA

O'zbekiston ta'lim tizimidagi gender statistikasi tahlili ayollar ta'lim va pedagogik sohada katta ulushga ega ekanini ko'rsatdi. Biroq, hududlar kesimida ayrim farqlar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar talab qilinadi. Maktabgacha ta'limdan boshlab, oliy ta'limga qadar gender tengligini ta'minlash borasida sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi. Ilmiy va akademik sohalarda ayollarning ishtiroki ortib borayotgan bo'lsa-da, ularni yanada qo'llab-quvvatlash zarur. Umuman olganda, O'zbekistonda gender tengligi bo'yicha ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda, lekin to'liq tenglikka erishish uchun qo'shimcha sa'y-harakatlar talab etiladi.





# JINOYATCHILIK





4

# 4. JINOYATCHILIK

## JINOYAT SODIR ETGAN SHAXSLAR SONI

*2023-yil oxiriga, kishi*

**JAMI:**
**88 913**




### TAHLIL

O'zbekistonda jami jinoyatchilarning 87,8 % ulushini erkaklar (78 022 nafar) hamda 12,2 % ulushini ayollar (10 891 nafar) tashkil etadi.

Jami jinoyatchilar umumiy aholining 0,24 % ulushini tashkil etadi. Jinoyatlar sonining o'zgarishi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, huquqni muhofaza qilish tizimi va madaniyat hamda aholi qadriyatlariga bog'liqdir.

**Jamiga nisbatan foizda:**







**>80 %**

Dunyo miqyosida jinoyatchilarning 80 % dan oshig'i erkaklardir.

Dunyo miqyosida erkaklar jinoyatchiligi yuqori bo'lib, erkaklar asosan jiddiy va zo'ravonlik jinoyatlarida yetakchi hisoblanadi. Ayollar esa, ko'proq iqtisodiy jinoyatlar, o'g'rilik va firibgarlik kabi jinoyatlarni ko'proq sodir etadilar.

Global miqyosda jinoyat sodir etganlarning 10-20 % qisminigina ayollar tashkil qiladi.

**Manba: :** https://unodc.org

# JINOYAT SODIR ETGAN SHAXSLAR SONINING JINOYATLAR TURI BO‘YICHA TAQSIMLANISHI

*2023-yil oxiriga, kishi*

| ERKAKLAR: | JINOYATLAR TURI: | AYOLLAR: |
|---|---|---|
| 15 608 | IQTISODIYOT ASOSLARIGA QARSHI JINOYATLAR | 2 167 |
| 11 800 | FIRIBGARLIK | 2 176 |
| 8 441 | O‘G‘RILIK | 1 525 |
| 5 327 | GIYOHVANDLIK BILAN BOG‘LIQ JINOYATLAR | 218 |
| 4 047 | BEZORILIK | 374 |
| 1 208 | BADANGA QASDDAN OG‘IR JAROHAT YETKAZISH | 80 |
| 987 | TALONCHILIK VA BOSQINCHILIK | 91 |

Iqtisodiy jinoyatlar, firibgarlik, o‘g‘rilik va giyohvandlik bilan bog‘liq jinoyatlar ko‘p sodir etiladigan jinoyat turlari hisoblanadi. Erkaklar orasida ham, ayollar orasida ham ko‘pchilik jinoyatchilar aynan shunday turdagi jinoyatlardan birini sodir etgan hisoblanadi. Nomusga tegish va nomusga tegishga urinish, tovlamachilik, qasddan odam o‘ldirish va o‘ldirishga suiqasd qilish nisbatan kam uchraydigan jinoyat turlaridir.

# JINOYAT SODIR ETGAN SHAXSLAR SONINING JINOYATLAR TURI BO'YICHA TAQSIMLANISHI

*2023-yil oxiriga, kishi*

| ERKAKLAR: | JINOYATLAR TURI: | AYOLLAR: |
|---|---|---|
| 449 | NOMUSGA TEGISH VA NOMUSGA TEGISHGA URINISH | 4 |
| 331 | TOVLAMACHILIK | 107 |
| 358 | QASDDAN ODAM O'LDIRISH VA O'LDIRISHGA SUIQASD QILISH | 26 |
| 29 466 | BOSHQA TURDAGI JINOYATLAR | 4 123 |

## TAHLIL

Jinoyatlarni kamaytirish bo'yicha maxsus qonunlar va qattiq jazo choralarining mavjudligi O'zbekistonning o'ziga xos jihati hisoblanadi. Bu jinoyatchilik darajasini pasaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Jamoatchilik orasida jinoyatchilikka qarshi kuchli nazorat va ijtimoiy qabul qilinmaslik O'zbekistonning ijtimoiy strukturasi va qadriyatlari bilan bog'liq. Jamoatchilik nazorati jinoyatlar sonini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim darajasi va madaniy qadriyatlar jinoyatchilik darajasiga ta'sir qiluvchi yana bir omil hisoblanadi. Ta'lim darajasining yuqori bo'lishi jinoyatchilikni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi.



# HUDUDLAR KESIMIDA JINOYAT SODIR ETGAN SHAXSLAR JINSI BO‘YICHA ULUSHI

*2023-yil oxiriga, %*

| | | |
|---|---|---|
| Sirdaryo | 91,6 | 8,4 |
| Toshkent v. | 89,1 | 10,9 |
| Farg‘ona | 87,0 | 13,0 |
| Xorazm | 87,8 | 12,2 |
| Toshkent sh. | 87,9 | 12,1 |



| | | |
|---|---|---|
| Qoraqalpog‘iston R. | 86,2 | 13,8 |
| Andijon | 84,1 | 15,9 |
| Buxoro | 86,9 | 13,1 |
| Jizzax | 89,6 | 10,4 |
| Qashqadaryo | 88,9 | 11,1 |
| Samarqand | 89,6 | 10,4 |
| Surxondaryo | 88,8 | 11,2 |

| | | |
|---|---|---|
| Navoiy | 85,5 | 14,5 |
| Namangan | 87,9 | 12,1 |

## TAHLIL

Yuqoridagi infografikadan ko‘rinadiki, hududlar kesimida O‘zbekistonda jinoyat sodir etgan shaxslarning jinslar bo‘yicha taqsimoti turlicha. Jumladan, Sirdaryo viloyatida erkaklar jinoyatchiligi eng yuqori bo‘lib, 91,6 % ga teng. Shuningdek, Samarqand, Jizzax va Toshkent viloyatlarida ham jami jinoyatchilarga nisbatan erkaklar ulushi ko‘proq.

Aksincha, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy va Andijon viloyatlarida boshqa hududlarga nisbatan jami jinoyatchilar orasida ayollar ulushi ko‘proq ekanligi ko‘rinadi. Andijon viloyatida jami jinoyatchilarning 15,9 % ini ayollar tashkil etmoqda.

Umuman olganda, hududlar kesimida ayollar jinoyatchiligi jamiga nisbatan 16 %dan yuqori emas.

# IJTIMOIY HIMOYA

# 5



# PENSIONERLAR VA IJTIMOIY NAFAQA OLUVCHILARNING JINSI VA PENSIYA TA’MINOTINING TURI BO‘YICHA SONI

*2023-yil oxiriga, ming kishi*




## TAHLIL

O‘zbekistonda 2023-yilda jami 4 466,1 ming nafar pensioner va ijtimoiy nafaqa oluvchilar mavjud bo‘lib, ulardan 2 608,4 mingi ayollar va 1 857,7 mingi erkaklardir. Pensioner va ijtimoiy nafaqa oluvchi ayollar erkaklarga qaraganda 750,7 mingga oshiq ekani ko‘rinadi.

Pensiya oluvchilarning katta qismi ayollar ekanligining asosiy sabablaridan biri ayollarning erkaklarga qaraganda uzoq umr ko‘rishidir (so‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi ayollarda 76,9 yoshni, erkaklarda esa 72,5 yoshni tashkil etmoqda).

Qayd etish kerak, dunyo miqyosida ham pensioner va ijtimoiy nafaqa oluvchilar orasida ayollarning ulushi ko‘proq hisoblanadi.

# HUDUDLAR KESIMIDA PENSIYA VA IJTIMOIY NAFAQA OLUVCHILARNING JINSI BO‘YICHA TARKIBI*

*2023-yil oxiriga, ming kishi*

**55 %**

XMT ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda aholining qariyb 55 % qismi ijtimoiy himoya tizimlari bilan to‘liq qamrab olinmagan.

Jahon Banki va Xalqaro Mehnat Tashkiloti kabi xalqaro tashkilotlar mamlakatlarga aholining barcha qatlamlarini, jumladan, norasmiy sektor ishchilarini ham qamrab oladigan keng qamrovli ijtimoiy himoya tizimlarini joriy etishni tavsiya qiladilar.

Manba: : https://ilo.org

## >> TAHLIL <<<<<<<<<<

Hududlar kesimida ijtimoiy nafaqa oluvchilar tarkibini tahlil qilganda, barcha hududlarda ayollarga mos raqamlar erkaklarnikidan ko‘p ekanini ko‘rish mumkin. Eng katta ko‘rsatkich Farg‘ona viloyatida qayd etilgan bo‘lib, jami 516,4 ming aholi (shu jumladan, 305,7 ming ayol va 210,7 ming erkak) ijtimoiy nafaqa oluvchi hisoblanadi. Keyingi o‘rinda Samarqand viloyatini ko‘rish mumkin (481,7 ming aholi, shundan 283,6 ming ayollar va 198,1 ming erkaklar).

O‘zbekiston Respublikasi .......... **4 466,1**



Erkaklar: 1 857,7
Ayollar: 2 608,4

*Boquvchisini yo‘qotganligi sababli tayinlangan pensiyalarsiz

| Hudud | Jami | Erkaklar | Ayollar |
|---|---|---|---|
| Sirdaryo | 116,7 | 49,2 | 67,5 |
| Navoiy | 153,1 | 68,7 | 84,4 |
| Jizzax | 156,2 | 67,7 | 88,6 |
| Qoraqalpog‘iston Resp. | 239,8 | 98,9 | 140,9 |
| Xorazm | 246,1 | 108,2 | 137,9 |
| Buxoro | 272,3 | 113,9 | 158,4 |
| Surxondaryo | 310,8 | 135,3 | 175,5 |
| Namangan | 347,9 | 150,4 | 197,5 |
| Toshkent | 400,4 | 169,2 | 231,2 |
| Toshkent sh. | 401,0 | 148,3 | 252,7 |
| Qashqadaryo | 411,0 | 172,9 | 238,1 |
| Andijon | 412,7 | 166,2 | 246,5 |
| Samarqand | 481,7 | 198,1 | 283,6 |
| Farg‘ona | 516,4 | 210,7 | 305,7 |

# FARZANDLIKKA OLINGAN, OTA-ONA QARAMOG'ISIZ QOLGAN 18 YOSHGACHA BO'LGAN BOLALARNING JINSI BO'YICHA ULUSHI

***2023-yil boshiga***

44,4 %



55,6 %

2023-yil boshiga ko'ra, farzandlikka olingan, ota-ona qaramog'isiz qolgan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar soni

**1 370**

nafarni tashkil etdi.

# OTA-ONA QARAMOG'ISIZ QOLGAN 18 YOSHGACHA BO'LGAN BOLALARNING JINSI BO'YICHA ULUSHI

***2023-yil boshiga***

2023-yil boshiga ko'ra, ota-ona qaramog'isiz qolgan 18 yoshgacha bo'lgan bolalar soni

**538**

nafarni tashkil etdi.



51,1 %

48,9 %

## >>>>>>>>>>>>>>>>>>>>>>>>>>>>>>>> DUNYODA QANDAY? <<<

Har yili dunyo bo'yicha minglab bolalar farzandlikka olinishi natijasida yangi oilalariga ega bo'lishadi. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, farzandlikka olish yetimlik muammosini hal qilishning samarali usuli hisoblanadi. Biroq, taraqqiyotga qaramay, ko'plab bolalar hali ham ota-onalarini kutmoqdalar. Turli mamlakatlarning qonunchiligi va madaniy an'analaridagi farqlar farzandlikka olish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

# MEHNAT

# 6



# IQTISODIYOTDA BAND BO'LGANLAR SONI

*2023-yil, ming kishi*

| ERKAKLAR | | AYOLLAR |
|---|---|---|
| 8 536,8 (56,8 %) | IQTISODIY FAOL AHOLI | 6 501,5 (43,2 %) |
| 8 173,6 (58,3%) | IQTISODIYOTDA BAND BO'LGANLAR | 5 840,6 (41,7 %) |
| 363,2 (35,5 %) | ISHSIZLAR SONI | 660,9 (64,5 %) |

jamiga nisbatan ulush

## TAHLIL

Ushbu raqamlardan quyidagi xulosalar qilinishi mumkin:

- Iqtisodiy faol erkaklar soni ayollarga qaraganda ko'proq.
- Ayollarning ish bilan ta'minlanish darajasi pastroq va ishsizlik darajasi yuqori.
- Erkaklar orasida ishsizlik darajasi ayollarnikiga qaraganda pastroq.

Bandlik va ishsizlik darajasi iqtisodiy rivojlanishning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi, ushbu statistika asosida davlat ishsizlikni kamaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ayollarning mehnat bozoridagi faolligini oshirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishi mumkin.

Ayollar va erkaklar o'rtasidagi mehnat bozoridagi farqlarni aniqlash, bu boradagi gender tengligini ta'minlash uchun chora-tadbirlar ko'rishda yordam beradi.




Hisob-kitoblarga ko'ra, ayollar global ishchi kuchining 42 % ulushini tashkil etadi. O'zbekistondagi raqamlar global darajadagi o'xshash tendensiyalarni aks ettiradi, lekin ishsizlik darajasi va maosh farqlari yanada kattaroq.

Mehnat bozoridagi raqamlarning gender farqini ko'rsatish ayollarning mehnat bozoridagi ishtirokini oshirish va teng imkoniyatlar yaratishga imkon beradi. Ayollarning mehnat bozoridagi faol ishtiroki iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Manba: https://ilo.org

# ISHSIZLIK DARAJASI, %




**6,8**

**2023-yil yakuni bo'yicha Respublikada ishsizlik darajasi shunchani tashkil qildi.**




**5,1%**

Dunyoda 2023-yilda ishsizlik darajasi shunchani tashkil qildi.

Shu bilan birga, ayollarda ishsizlik darajasi 5,3 % ni, erkaklarda esa 5,0 % ni tashkil qildi. Eng yuqori ishsizlik darajasi Afg'onistonda qayd etilgan: jami ishsizlik darajasi 15,4 %, ayollarda 29,2 % va erkaklarda 14,4 %. Yuqori daromadli mamlakatlarda ayollarning ishsizlik darajasi bo'yicha gender farq u qadar sezilarli emas.

Bu ko'rsatkichlar pandemiya davridagi cho'qqi bilan solishtirganda yaxshiroq, biroq haligacha iqtisodiy imkoniyatlar cheklangan davlatlarda ishsizlik muammosi ko'lami o'zgarmayapti.

## BA'ZI MAMLAKATLARDA ISHSIZLIK DARAJASI, %

| | Jami | Ayollar | Erkaklar |
|---|---|---|---|
| XITOY | 5,0 | 4,3 | 5,5 |
| ROSSIYA FEDERATSIYASI | 3,2 | 3,2 | 3,1 |
| QOZOG'ISTON | 4,7 | 5,3 | 4,1 |
| TURKIYA | 9,6 | 12,5 | 8,2 |
| JANUBIY KOREYA | 2,7 | 2,7 | 2,6 |

2023-yil ma'lumotlari, manba: https://genderdata.worldbank.org/

# HUDUDLAR KESIMIDA JINS BO'YICHA ISHSIZLIK DARAJASI, %

2023-yil





| | | |
|---|---|---|
| O'zbekiston Respublikasi | 4,3 | 10,2 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 2,7 | 12,8 |
| Xorazm | 4,2 | 9,5 |
| Buxoro | 2,7 | 11,3 |
| Qashqadaryo | 4,7 | 11,3 |
| Surxondaryo | 5,0 | 10,9 |
| Navoiy | 6,0 | 6,6 |
| Samarqand | 3,6 | 10,8 |
| Jizzax | 3,6 | 12,4 |
| Toshkent sh. | 5,0 | 5,9 |
| Toshkent v. | 4,1 | 10,2 |
| Namangan | 5,3 | 9,1 |
| Andijon | 2,9 | 13,0 |
| Farg'ona | 5,2 | 9,4 |
| Sirdaryo | 4,9 | 10,6 |

## TAHLIL

Turli hududlarda ishsizlik darajasining farqlanishi tabiiydir: Turli hududlarda iqtisodiy imkoniyatlar va gender tengsizligi darajasi farqlanadi. Bu esa mintaqaviy mehnat bozorining o'ziga xosliklarini hisobga olish va har bir hudud uchun alohida siyosat ishlab chiqishni talab qiladi.

# JAMI BANDLARNING JINSI BO'YICHA TAQSIMLANISHI, %

2023-yil

**41,7**

2016-yilda jami bandlarga nisbatan ayollar ulushi **45,7 %** ni tashkil etgan.

Solishtirish uchun:

**58,3**

2016-yilda jami bandlarga nisbatan erkaklar ulushi **54,3 %** ni tashkil etgan.

# IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI KESIMIDA BANDLAR SONINING JINSI BO'YICHA TAQSIMLANISHI

*2023-yil, ming kishi*

| IQTISODIY FAOLIYAT TURLARI: | Ayollar | Erkaklar | JAMIGA NISBATAN: Ayollar | JAMIGA NISBATAN: Erkaklar |
|---|---|---|---|---|
| JAMI | 5 840,6 | 8 173,6 | 41,7 % | 58,3 % |
| QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI | 1 444,9 | 1 899,1 | 43,2 % | 56,8 % |
| SANOAT | 799,8 | 1 036,1 | 43,6 % | 56,4 % |
| QURILISH | 118,6 | 1 383,6 | 7,9 % | 92,1 % |
| SAVDO | 779,9 | 806,2 | 49,2 % | 50,8 % |
| TASHISH VA SAQLASH | 79,9 | 560,5 | 12,5 % | 87,5 % |
| AXBOROT VA ALOQA | 30,7 | 57,1 | 35,0 % | 65,0 % |
| MOLIYAVIY VA SUG'URTA FAOLIYATI | 25,4 | 48,0 | 34,6 % | 65,4 % |
| TA'LIM | 923,6 | 375,9 | 71,1 % | 28,9 % |
| SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOIY XIZMATLAR KO'RSATISH | 519,9 | 174,9 | 74,8 % | 25,2 % |
| BOSHQALAR | 1 117,9 | 1 832,2 | 37,9 % | 62,1 % |

# YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKOR AYOLLAR VA ERKAKLAR SONI

*(Davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatdan o'tganlar)*

*2023-yil oxiriga, kishi*

| | Ayollar | Erkaklar |
|---|---|---|
| JAMI | 102 802 | 140 047 |
| Chakana savdo faoliyati yurituvchilar | 46 297 | 72 400 |
| Hunarmandchilik faoliyati (qonun hujjatlarida belgilangan ro'yxat bo'yicha) | 10 050 | 12 638 |
| Maishiy xizmat sohasida faoliyat yurituvchilar | 7 335 | 14 138 |
| BOSHQA FAOLIYAT TURLARI BILAN SHUG'ULLANUVCHILAR | 39 120 | 40 871 |

## TAHLIL

Ta'lim va malaka oshirish imkoniyatlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash, gender tengligi siyosati va ijtimoiy me'yorlarning o'zgarishi tadbirkorlar orasida ayollar ko'payishiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi.

Ayol tadbirkorlar yangi g'oya va innovatsiyalarni amalga oshirishi va jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal qilishga katta hissa qo'shishi mumkin.

# FAOLIYAT KO‘RSATAYOTGAN O‘ZINI-O‘ZI BAND QILGANLAR

*(Davlat soliq xizmati organlarida ro‘yxatdan o‘tganlar)*

*2023-yil oxiriga, ming kishi*

**JAMI: 2 533,9**

Ayollar: 1 105,4 | Erkaklar: 1 428,5

| Faoliyat turi | Jami | Ayollar | Erkaklar |
|---|---|---|---|
| Yo‘lovchilarni yengil avtotransport vositalarida tashish | 322,1 | 4,4 | 317,7 |
| Tikuvchilik xizmatlari (Tikuv, mo‘yna, charm va trikotaj buyumlarni, bosh kiyimlarni va to‘qimachilik galantereyasi buyumlarini ta’mirlash, aholining yakka tartibdagi buyurtmasi bo‘yicha tikuv va trikotaj buyumlarini, bosh kiyimlarini va to‘qimachilik galantereyasi buyumlarini tikish) | 304,5 | 298,7 | 5,8 |
| Dehqon va fuqarolarning tomorqa uchastkalarida yer chopish va rekultivatsiya ishlari | 292,4 | 115,1 | 177,3 |
| Qishloq xo‘jaligi ishlari (Fermer xo‘jaliklari egalari buyurtmasi bo‘yicha qishloq xo‘jaligi ishlari (qishloq xo‘jaligi o‘simliklari va hayvonlarni parvarish qilish, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosilini yig‘ish va boshqa qishloq xo‘jaligi ishlari)) | 205,4 | 71,3 | 134,1 |
| Bolalarga qarab turish va ularni parvarish qilish bo‘yicha jismoniy shaxslarga ko‘rsatiladigan xizmatlar | 115,8 | 113,5 | 2,3 |
| Jismoniy shaxslarga murakkab bo‘lmagan umumiy qurilish, qurilish-ta’mirlash ishlari (beton quyish, bo‘yoqchilik, suvoqchilik ishlari, g‘isht va kafel terish, perforatsiya, duradgorlik, chilangarlik va boshqa umumiy qurilish ishlari) | 155,0 | 1,2 | 153,8 |
| Chorva mollarini o‘tlatish, ularni parvarish qilish | 94,9 | 29,7 | 65,2 |
| Uy xo‘jaligini yuritish va uy ishlarini bajarish (shu jumladan, turar joylarni tozalash, ovqat pishirish bo‘yicha uy xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatish) | 98,8 | 84,7 | 14,1 |
| BOSHQALAR | 945,0 | 386,8 | 558,2 |

# DAVLAT SOLIQ XIZMATI ORGANLARIDA RO‘YXATDAN O‘TIB, FAOLIYAT KO‘RSATAYOTGAN YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNING YOSH GURUHLARIDA TAQSIMLANISHI

*2023-yil oxiriga, kishi*

| KO‘RSATKICHLAR | AYOLLAR | ERKAKLAR |
|---|---|---|
| JAMI | 102 802 | 140 047 |
| 15-19 yosh | 4 | 3 |
| 20-24 yosh | 924 | 2 213 |
| 25-29 yosh | 4 163 | 11 376 |
| 30-34 yosh | 8 252 | 20 112 |
| 35-39 yosh | 13 386 | 24 240 |
| 40-44 yosh | 16 822 | 23 230 |
| 45-49 yosh | 15 124 | 18 094 |
| 50-54 yosh | 13 041 | 13 424 |
| 55-59 yosh | 12 005 | 9 818 |
| 60-64 yosh | 9 299 | 8 489 |
| 65+ yosh | 9 782 | 9 048 |

**20-25 %**

Jahon Banki tadqiqotlariga ko‘ra, jami tadbirkor ayollarning shuncha qismi 25-34 yosh oralig‘ida hisoblanadi.

Qayd etilishicha, ayollar tadbirkorligi erkaklar tadbirkorligiga nisbatan kam uchraydi. Ayollarning eng faol yosh guruhi 25-34 yosh bo‘lib, bu yosh guruhidagi ayollar jami ayol tadbirkorlarning 20-25 % qismini tashkil etadi.

Erkaklar orasida esa eng faol yosh guruhi 35-44 yosh bo‘lib, bu yosh guruhidagi erkaklar tadbirkorlarning 30-35 % ni tashkil etadi.

Manba: https://worldbank.org/

## XULOSA

Ayollar tadbirkorligida moliyaviy imkoniyatlar, ijtimoiy va madaniy cheklovlar, tarmoq va mentorlik, ish va hayot muvozanati hamda innovatsiya va sektorlar kabi o‘ziga xos jihatlar mavjud. Ayollar ko‘pincha moliyaviy resurslarga ega chiqish imkoniyatlari jihatidan erkaklar bilan solishtirganda kamroq resurslarga ega va ijtimoiy cheklovlarga duch kelishadi.

Ayollar ko‘pincha sog‘liqni saqlash va ta‘lim kabi sohalarda innovatsiyalar yaratadi, erkaklar esa texnologiya va ishlab chiqarish kabi sohalarda faoliyat yuritishadi. Bu farqlar jamiyatda ayollar va erkaklar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashning muhimligini ko‘rsatadi.

# TURIZM



# 7

# O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA KELGAN CHET EL FUQAROLARINING DAVLATLAR BO‘YICHA TAQSIMLANISHI

*2023-yil, ming kishi*




## TAHLIL

Jahon miqyosida ko‘plab davlatlar turizm statistikalarini gender jihatdan tahlil qiladi. Masalan, Yevropa mamlakatlarida ham turizm sohasida kelgan turistlarning jinsi bo‘yicha tahlil o‘tkaziladi va bu natijalarga ko‘ra, genderga xos xizmatlar ko‘rsatish imkoniyatlari yaratiladi.

Bu statistik ma‘lumotlar gender tenglikni rivojlantirishga hissa qo‘shadi, Shu bilan birga, bu ma’lumotlar asosida turistik xizmatlarni yaxshilash va turizm sohasida innovatsion yechimlar joriy qilish imkoniyatlari ham kengayadi.

# 7. TURIZM






Xalqaro tashkilotlar davlatlarga turizm sohasida erkak va ayollar o'rtasidagi tenglikni ta'minlash uchun maxsus siyosatlar ishlab chiqishni tavsiya etadi. Bu sayyohlik sohasida ishlovchi ayollar uchun yangi ish o'rinlari yaratish, ularning huquqlarini himoya qilish va gender muvozanatini ta'minlashga qaratilgan.

Mamlakatga tashrif buyurgan turist ayollarni har qanday zo'ravonlik va kamsitishdan himoya qilish uchun davlatlar qat'iy choralar ko'rishi kerak. Bu, sayyohlik sohasidagi xavfsizlik choralarini kuchaytirishni o'z ichiga oladi.

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA TURISTIK MAQSADLARDA KELGAN CHET EL FUQAROLARI VA TURISTIK MAQSADLARDA CHET ELGA KETGAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLARI SONI

*2023-yil, ming kishi*

RESPUBLIKAGA TURISTIK MAQSADLARDA

## KELGANLAR:

JAMI: 6 626,3

3 306,1 | 3 320,2



RESPUBLIKADAN TURISTIK MAQSADLARDA

## KETGANLAR:

JAMI: 4 787,4

2 344,1 | 2 443,3



## TAHLIL

Tashrif buyurgan sayyohlarning gender balansiga qaralsa, ayollar va erkaklar soni deyarli teng. Bu, O'zbekistonning turizm infratuzilmasi va xizmatlar ayollar va erkaklar uchun teng jozibadorligini ko'rsatadi. Ayol sayyohlar sonining ko'pligi mamlakatdagi xavfsizlik va xizmatlar sifati haqida ijobiy tasavvur beradi.

O'zbekiston fuqarolarining chet elga chiqish tendensiyasi ham gender muvozanatiga yaqin. Bu, o'zbekistonliklarning turistik maqsadlarda sayohat qilish imkoniyatlarining erkak va ayollar uchun teng ekanligini bildiradi. Ayollar sonining yuqoriligi o'z navbatida madaniy, o'quv yoki tibbiy turizmga bo'lgan talabning yuqoriligini ko'rsatadi.

# SPORT



# 8



# SPORT TA’LIMI MUASSASALARIDA TRENERLARNING JINSI BO‘YICHA ULUSHI

*2023-yil oxiriga, %*







## TAHLIL

Trenerlar orasida jinsi bo‘yicha teng taqsimot, sport sohasida gender tengligini targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynaydi. Bu nafaqat sportchilarga, balki butun jamiyatga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi, chunki u teng imkoniyatlar, turli nuqtai nazarlar va ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Ayol trenerlarning ko‘pligi qizlar uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Bu sportga ko‘proq qizlarni jalb qilishga yordam beradi va ularning faoliyatda barqaror qolishini ta‘minlaydi.

Ko‘pgina joylarda ayol trenerlar sonining kamligi madaniy va ijtimoiy to‘siqlar bilan bog‘liq. Masalan, ayrim jamiyatlarda ayollarning sport bilan shug‘ullanishi yoki sport sohasida ishlashi hali ham qabul qilinmagan bo‘lishi mumkin. Global miqyosda ayol trenerlar sonining oshib borishi kutilmoqda, chunki ko‘plab davlatlar bu borada siyosiy choralar ko‘rmoqda va ijtimoiy ong ham o‘zgarib bormoqda.

TOKYO 2020

**13 %**

XOQ qayd etishicha, Tokio-2020 olimpiadasida jami murabbiylarning faqat 13 % qismi ayollardan iborat.

Xalqaro olimpiya qo'mitasi (XOQ) ayol trenerlar sonini oshirish va ularni yuqori darajaga yetkazish yo‘llarini izlashda hamkor davlatlarni qo‘llab-quvvatlashga intiladi. Bu yo‘lda muvaffaqiyatga erishgan va boshqalarga o‘rnak bo‘ladigan trenerlarni tanitish XOQning asosiy maqsadlaridan biridir. Bu bilan ayollarga yuqori darajali sport murabbiyligi yo‘nalishida yanada ko‘proq rol o‘ynashlari uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qilinadi.

Manba: https://olympics.com

# SPORT TURLARI BO'YICHA SHUG'ULLANUVCHILARNING JINSI BO'YICHA ULUSHI

*2023-yil oxiriga, %*




## SPORT BILAN SHUG'ULLANUVCHILARNING JINSI BO'YICHA ULUSHI, %

35,7

2023-yil yakuni holatida sport seksiyasi va bo'limlarida darsdan va ishdan tashqari sport bilan shug'ullanayotganlarning 35,7 % ini ayollar tashkil qilmoqda. 2022-yilda bu ko'rsatkich 35,1 % ni tashkil etgan.

64,3

PARIS 2024

50 %

XOQ tomonidan e'tirof etilishicha, Parij-2024 Olimpiada o'yinlarida qatnashuvchilar bo'yicha gender tengligiga erishildi.

Olimpiya o'yinlari dunyodagi eng katta gender tenglikka erishgan sport tadbiridir. Keyingi olimpiadalarda ham to'liq gender tenglikka erishish maqsad qilinmoqda. Xalqaro olimpiya qo'mitasining (XOQ) sa'y-harakatlari tufayli, ayollar sportida ishtirok etish imkoniyatlari oshib, aralash jamoalar soni ko'paygan. Bu tashabbuslar, ayol sportchilar uchun global miqyosda imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Manba: https://olympics.com

# MADANIYAT



# 9

# MADANIYAT VA AHOLI DAM OLISH MARKAZLARI XODIMLARINING JINSI BO'YICHA TAQSIMLANISHI

*2023-yil oxiriga, %*







## TAHLIL

Madaniyat va dam olish sohalari xodimlari orasida gender balansi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu nafaqat ayollar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, balki jamiyatning barcha qatlamlarining talablari va manfaatlarini inobatga oladigan boy va xilma-xil madaniy muhitni rivojlantirishga yordam beradi.

Gender balansini saqlash madaniyat va dam olish markazlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, ayollar sonining oshishi markazlarda amalga oshirilayotgan loyihalar va tadbirlarning kengroq auditoriyaga yo'naltirilishiga imkon beradi. Ayollarning o'zlarining madaniy va ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratilib, bu markazlarning obro'sini oshiradi.

Gender balansi aynan madaniy va dam olish markazlarida erishilsa, bu soha jamiyatning barcha a'zolariga yanada ochiq va moslashuvchan bo'lib, turli ehtiyoj va manfaatlarni qondirish imkonini beradi. Bu esa o'z navbatida, madaniy rivojlanishni tezlashtiradi va barqaror ijtimoiy rivojlanishga hissa qo'shadi.

# MUZEY XODIMLARINING JINSI BO‘YICHA TAQSIMLANISHI

*2023-yil oxiriga, %*







## TAHLIL

Muzey xodimlari orasida gender balansi saqlanishi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu nafaqat xodimlarning har xil ko‘nikma va qobiliyatlarini to‘liq ishga solishga, balki jamiyatning kengroq qatlamlariga xizmat ko‘rsatishga yordam beradi. Ayollar va erkaklar ishtirokidagi xilma-xil jamoalar muzeylarning faoliyatini yanada boyitadi va ularni har tomonlama rivojlantiradi.

Ayollarning muzey sohasida faol ishtirok etishi, muzey kolleksiyalari va ko‘rgazmalarining mavzu doirasini kengaytirishga hamda turli xil madaniy va tarixiy voqealarga turli nuqtai nazardan qarash imkonini yaratadi. Bu esa tashrif buyuruvchilar uchun yanada qiziqarli va jozibador ko‘rgazmalar tashkil etishga yordam beradi. Gender balansi muzeyning barcha qatlami, jumladan ilmiy tadqiqot, taqdimot va ma’muriy faoliyatda ham o‘z aksini topishi, muzeylarning jamoat bilan mustahkam aloqalar o‘rnatishiga va keng auditoriya bilan samarali ishlashiga xizmat qiladi. Natijada, muzeylar madaniy va ta’limiy missiyasini yanada muvaffaqiyatli amalga oshirishi, hamda jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlarini o‘ziga jalb etishi mumkin.

# TEATR ARTIST XODIMLARINING JINSI BO'YICHA ULUSHI

*2023-yil oxiriga, % da*

| | | | |
|---|---|---|---|
| 100 % | JAMI | 59,1 | 48,1 |
| 19,6 | OPERA VA BALET | 10,0 | 29,9 |
| 42,6 | DRAMA | 47,5 | 37,3 |
| 22,9 | MUSIQIY | 25,7 | 19,9 |
| 1,8 | YOSH TOMOSHABINLAR TEATRI | 1,8 | 1,9 |
| 13,1 | QO'G'IRCHOQ | 15,1 | 11,0 |

## >>>>>>>>>>>>>>>>>>>>>>>>>>>>> DUNYODA QANDAY? <<<<<<

Dunyodagi teatr yo'nalishlarida ishlovchi aktyorlar jinsi bo'yicha turlicha taqsimlanadi. Opera va baletda ayollar yuqori vakillikka ega bo'lsa, drama va musiqiy teatrlarda erkaklar hali ham ko'proq yetakchi rollarni egallaydi. Yosh tomoshabinlar teatri va qo'g'irchoq teatrida esa ayollar ishtiroki ko'proq, ayniqsa, ijodiy va ta'limiy rollarda.

# MINIMAL KO‘RSATKICHLAR












Min

# MINIMAL KO‘RSATKICHLAR

UNITED NATIONS

Dunyoda gender tengligini oshirish bo‘yicha harakatlar jarayonida, gender farqlarini aniqroq ko‘rish, tahlil qilish va tegishli choralar ko‘rish zarurati ortib bormoqda. Shu maqsadda BMT Statistika Komissiyasi 52 ta minimal gender ko‘rsatkichlarini ishlab chiqdi. Ushbu ko‘rsatkichlar gender tengligi bo‘yicha xalqaro standartlar asosida ishlab chiqilgan bo'lib, davlatlarga bu sohada erishilgan yutuqlarni baholash va kuzatishda yordam beradi.

Bu ko‘rsatkichlar 6 ta asosiy sohani qamrab oladi, har bir soha jamiyatda ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tenglikni ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan muhim jihatlarni aks ettiradi. Ushbu ko‘rsatkichlar davlatlarga gender tengligini kuzatish va bu borada harakatlarni rejalashtirish uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bu ko‘rsatkichlar nafaqat statistik ma‘lumotlar to‘plami, balki mamlakatlar uchun gender tengligini ta‘minlash yo‘lidagi strategik yo‘nalishlar hamdir. Shu bois, minimal gender ko‘rsatkichlari butun dunyo miqyosida katta ahamiyatga ega bo‘lib, ularni joriy qilish va muntazam ravishda kuzatish jamiyatda teng imkoniyatlar yaratish va gender tengligiga erishish uchun muhim qadamdir.




UN WOMEN

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati qarori bilan tasdiqlangan “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi” doirasida BMTning Statistika komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan 52 ta minimal gender ko‘rsatkichlar to‘plami (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4235-son Qaroriga muvofiq, minimal gender ko‘rsatkichlari to‘plami 54 taga yetkazildi) bo‘yicha Statistika agentligining gender.stat.uz rasmiy veb-saytida alohida sahifa ochildi hamda mas’ul vazirlik va idoralar belgilab olindi.

UZSTAT

Mazkur veb-saytda BMT Statistika Komissiyasining tavsiyasiga muvofiq turli sohalarda 5 ta yo‘nalish bo‘yicha 54 ta ko‘rsatkichlardan iborat gender ko‘rsatkichlarining minimal to‘plami shakllantirilib, e’lon qilib borilmoqda.

# IQTISODIY RESURSLAR

## 1 Haq to'lanmaydigan uy ishlarini bajarishda sarflangan o'rtacha vaqt, *soat*




## 2 Birgalikda haq to'lanadigan va haq to'lanmaydigan uy ishlari uchun sarflangan o'rtacha vaqt, *soat*




## 3 15-24 yosh, 15 yosh hamda undan katta yoshdagilarning (15+) ishchi kuchida ishtiroki koeffitsiyenti, *2022-yil*




**IZOH**

BMTning Ayollar uchun Taraqqiyot dasturi (UNDP) va Xalqaro mehnat tashkiloti tavsiyalariga ko'ra, uy xo'jaliklari doirasida erkaklar va ayollar o'rtasida teng mehnat taqsimotini rag'batlantirish lozim. Uy ishlaridagi tenglikka yaqinlashish orqali ayollarga iqtisodiy faoliyatda faolroq ishtirok etish imkonini beradi.

## 4 Band bo‘lganlar umumiy sonida o‘zini-o‘zi band qilganlarning ulushi, *2022-yil*




## 5 Oilaviy korxonalarda ishlaydiganlar va oila yordamchisi sifatida faoliyat yuritayotganlar, *%*




## 6 Ish beruvchilar tarkibidan band bo‘lganlar ulushi, *2023-yil, %*




## 7 Ayollar egalik qilayotgan firmalar ulushi, *%*



# 8

## Xotin-qizlar va erkaklarning sektorlar kesimida jami bandlardagi ulushi, *2023-yil, %*

**QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI**

24,7

23,2

**SANOAT**

13,7

12,7

**QURILISH**

2,0

16,9

**SAVDO**

13,4

9,9

**TASHISH VA SAQLASH**

1,4

6,9

**AXBOROT VA ALOQA**

0,5

0,7

**MOLIYAVIY VA SUG'URTA FAOLIYATI**

0,4

0,6

**TA'LIM**

15,8

4,6

**SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOIY XIZMATLAR KO'RSATISH**

8,9

2,1

**BOSHQALAR**

19,2

22,4

# 9

## Norasmiy sektorda bandlar sonining jami band bo'lgan aholi soniga nisbatan ulushi, *qishloq xo'jaligi sohasidan tashqari, %*




# 10

## 16-25 yoshdagi yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasi, *2022-yil, %*

| | | |
|---|---|---|
| Respublika bo'yicha | 18,6 | 11,2 |
| Qoraqalpog'iston R. | 18,2 | 11,9 |
| Andijon | 20,5 | 12,2 |
| Buxoro | 16,1 | 11,8 |
| Jizzax | 19,1 | 12,9 |
| Qashqadaryo | 22,3 | 13,2 |
| Navoiy | 14,9 | 9,5 |
| Namangan | 19,3 | 10,6 |
| Samarqand | 21,1 | 10,3 |
| Surxondaryo | 20,7 | 10,2 |
| Sirdaryo | 15,6 | 11,3 |
| Toshkent v. | 18,8 | 11,6 |
| Farg'ona | 20,9 | 11,9 |
| Xorazm | 19,7 | 12,0 |
| Toshkent sh. | 10,7 | 7,6 |



## 11 Kredit olish imkoniyatiga ega bo'lgan aholi ulushi, *2023-yil, %*




## 12 Yer mulkiga ega bo'lgan katta yoshli aholi ulushi, *2023-yil, %*




| Hudud | Ayollar | Erkaklar |
|---|---|---|
| QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI | 27,4 | 72,6 |
| ANDIJON VILOYATI | 25,9 | 74,1 |
| BUXORO VILOYATI | 24,8 | 75,2 |
| JIZZAX VILOYATI | 25,4 | 74,6 |
| QASHQADARYO VILOYATI | 20,7 | 79,3 |
| NAVOIY VILOYATI | 27,3 | 72,7 |
| NAMANGAN VILOYATI | 24,7 | 75,3 |
| SAMARQAND VILOYATI | 24,0 | 76,0 |
| SURXONDARYO VILOYATI | 22,1 | 77,9 |
| SIRDARYO VILOYATI | 32,5 | 67,5 |
| TOSHKENT VILOYATI | 35,6 | 64,4 |
| FARG'ONA VILOYATI | 25,8 | 74,2 |
| XORAZM VILOYATI | 25,3 | 74,7 |
| TOSHKENT SHAHRI | 50,2 | 49,8 |

## 13 Ayollar ish haqining erkaklar ish haqiga nisbatan farqi, *%*

**29,6**

2023-yil yakuni bo'yicha **shunchani tashkil qildi.**

**Solishtirish uchun:**

**Ushbu ko'rsatkich 2022-yilda 34,0 % ni tashkil etgan**

## 14 To'liq band bo'lmaganlarning band bo'lganlar sonidan ulushi, *2022-yil, %*

AYOLLARDA: **15,7** | ERKAKLARDA: **7,5**

| Hudud | Ayollarda | Erkaklarda |
|---|---|---|
| QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI | 10,4 | 4,4 |
| ANDIJON VILOYATI | 16,6 | 6,9 |
| BUXORO VILOYATI | 16,5 | 5,4 |
| JIZZAX VILOYATI | 20,1 | 10,8 |
| QASHQADARYO VILOYATI | 21,8 | 6,2 |
| NAVOIY VILOYATI | 13,8 | 7,1 |
| NAMANGAN VILOYATI | 14,1 | 7,0 |
| SAMARQAND VILOYATI | 13,1 | 8,8 |
| SURXONDARYO VILOYATI | 18,0 | 10,4 |
| SIRDARYO VILOYATI | 21,8 | 9,4 |
| TOSHKENT VILOYATI | 10,1 | 7,7 |
| FARG'ONA VILOYATI | 26,9 | 13,1 |
| XORAZM VILOYATI | 11,3 | 6,4 |
| TOSHKENT SHAHRI | 4,7 | 1,9 |

# 15

## 3 yoshgacha bo‘lgan farzandi bilan va farzandsiz uy xo‘jaligida yashayotgan kishilar orasidagi bandlik koeffitsiyenti*, *2022-yil, %*

*25 - 49 yoshlilar




# 16

## Rasmiy ta‘limga qamrab olingan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar ulushi, *2023-yil, %*

| | QIZ BOLALAR | O‘G‘IL BOLALAR |
|---|---|---|
| Jami | 0,1 | 0,1 |
| QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI | 0,1 | 0,2 |
| ANDIJON VILOYATI | 0,2 | 0,2 |
| BUXORO VILOYATI | 0,1 | 0,2 |
| JIZZAX VILOYATI | 0,1 | 0,1 |
| QASHQADARYO VILOYATI | 0,1 | 0,1 |
| NAVOIY VILOYATI | 0,1 | 0,2 |
| NAMANGAN VILOYATI | 0,1 | 0,1 |
| SAMARQAND VILOYATI | 0,1 | 0,1 |
| SURXONDARYO VILOYATI | 0,1 | 0,1 |
| SIRDARYO VILOYATI | 0,1 | 0,2 |
| TOSHKENT VILOYATI | 0,1 | 0,1 |
| FARG‘ONA VILOYATI | 0,1 | 0,2 |
| XORAZM VILOYATI | 0,2 | 0,2 |
| TOSHKENT SHAHRI | 0,1 | 0,2 |

## 17 Internetdan foydalanayotgan shaxslar ulushi*, *2023-yil, %*




**IZOH**

Internetga teng kirish imkoniyatlarini yaratish orqali ayollarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini oshirish, ta’lim va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Bu esa ayollarga iqtisodiy faoliyatda faolroq ishtirok etish imkonini beradi.

**uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuvlari ma’lumotlariga asosan*

## 18 Mobil/uyali aloqa vositalaridan foydalanayotgan shaxslar ulushi*, *2023-yil, %*




**uy xo‘jaliklari tanlanma kuzatuvlari ma’lumotlariga asosan*

**IZOH**

BMTning Ayollar uchun Taraqqiyot dasturi (UNDP) va Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) tavsiyalariga muvofiq, uy xo‘jaliklari doirasida erkaklar va ayollar o‘rtasida raqamli tenglikni rag‘batlantirish zarur. Raqamli tenglikni ta’minlash ayollarning ijtimoiy hayotda yanada faol qatnashishini qo‘llab-quvvatlaydi va jamiyatda gender tengligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayon, ayollarning nafaqat ta’lim va kasbiy rivojlanishda, balki siyosiy va ijtimoiy qaror qabul qilish jarayonlarida ham faolligini oshiradi.

## 19

## Ommaviy axborot vositalaridan foydalanish imkoniyatiga ega uy xo'jaliklari ulushi*, *2023-yil, %*

### TELEVIZORLAR

100

100

### SHAXSIY KOMPYUTERLAR

56,0

63,0

### MOBIL TELEFONLAR

100

100

### INTERNETDAN FOYDALANUVCHI AHOLI ULUSHI

87,0

91,0

**uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan*

## 20 YOSHLARNING (16-24 YOSHLI SHAXSLAR) SAVODXONLIK DARAJASI, *2023-yil, %*

RESPUBLIKADA: 100

Ayollar: 100

Erkaklar: 100

## 21 Boshlang'ich ta'lim bilan qamrab olinish koeffitsiyenti, *2023/2024-o'quv yili boshiga, %*

Ayollar: 94,1

Erkaklar: 94,2

## 22 O'rta ta'lim bilan qamrab olinish koeffitsiyenti, *2023/2024-o'quv yili boshiga, %*

Ayollar: 97,0

Erkaklar: 97,0

## 23 Oliy ta'lim bilan qamrab olinish koeffitsiyenti, *2023/2024-o'quv yili boshiga, %*

Ayollar: 43,9

Erkaklar: 41,8

## 24 Ta'lim bilan qamrab olish darajasi bo'yicha gender tengligi indeksi, *2023/2024-o'quv yili boshiga, kishi*



BOSHLANG'ICH TA'LIM
**0,94**



O'RTA TA'LIM
**0,97**



OLIY TA'LIM
**0,97**



## 25 Fan, muhandislik, ishlab chiqarish va qurilish sohalari bitiruvchilari orasida ayollar ulushi, *2023-yil*



**42,1 %**

## 26 Oliy ta'lim tashkilotlaridagi professor-o'qituvchilar tarkibidagi ayollar ulushi, *2023-yil*



**45,4 %**

## 27 Boshlang'ich ta'limning 1-sinfiga qabul qilinganlarning aniqlashtirilgan koeffitsiyenti, *%*

| | O'g'il bolalar | Qiz bolalar |
|---|---|---|
| 2023/2024 | 98,0 | 98,0 |
| 2022/2023 | 97,5 | 97,9 |

## 28 Boshlang'ich ta'limni tugatganlik koeffitsiyenti, *2023-yil, %*

| | |
|---|---|
| O'g'il bolalar | 106,2 |
| Qiz bolalar | 106,3 |

## 29 O'rta ta'limning 1-bosqich bitiruvchilari umumiy koeffitsiyenti, *%*

| | 2022-yil | 2023-yil |
|---|---|---|
| O'g'il bolalar | 88,0 | 97,0 |
| Qiz bolalar | 85,9 | 97,0 |

## 30 Boshlang'ich ta'limdan ta'limning o'rta bo'g'iniga o'tish koeffitsiyenti, *2023-yil, %*

| | |
|---|---|
| O'g'il bolalar | 106,2 |
| Qiz bolalar | 106,3 |

MINIMAL KO'RSATKICHLAR

TA'LIM

31

## 25 yosh va undan katta yoshdagi ayollar va erkaklarning ta'lim darajasi*, tegishli guruhlarga nisbatan, *2023-yil*, %

| | Ayollar | Erkaklar |
|---|---|---|
| SAVODSIZ: | 0 | 0 |
| SAVODLI: | 100 | 100 |
| BOSHLANG'ICH VA QUYI: | 0,0 | 0,0 |
| O'RTA: | 39,5 | 32,6 |
| O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR: | 45,8 | 47,7 |
| OLIY VA UNDAN YUQORI: | 14,7 | 19,7 |

**uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan*

## 32 Kontratseptik vositalardan foydalanilganlik ko‘rsatkichi

100 ta 15-49 yoshdagi ayollarga nisbatan, *2023-yil*

Bachadon ichi spirali **41,2**

Gormonal preparatlar **0,8**

## 33 Bolalar o‘limi koeffitsiyenti

*5 yoshgacha, 1000 ta tug‘ilganga nisbatan, 2023-yil*

| Respublika bo‘yicha | 10,8 | 13,6 |
|---|---|---|



| | | |
|---|---|---|
| Qoraqalpog‘iston R. | 14,4 | 17,1 |
| Andijon | 11,0 | 13,7 |
| Buxoro | 8,0 | 108 |
| Jizzax | 8,2 | 10,0 |
| Qashqadaryo | 13,0 | 17,2 |
| Navoiy | 8,2 | 11,1 |
| Namangan | 11,0 | 14,8 |
| Samarqand | 10,7 | 14,4 |
| Surxondaryo | 12,6 | 13,8 |

| | | |
|---|---|---|
| Sirdaryo | 10,6 | 15,8 |
| Toshkent v. | 8,6 | 10,1 |
| Farg‘ona | 8,1 | 10,4 |
| Xorazm | 10,0 | 12,4 |
| Toshkent sh. | 13,9 | 16,9 |

# 34

## Onalar o‘limi koeffitsiyenti

*100 000 tirik tug‘ilgan bolaga, 2023-yil*

| | |
|---|---|
| Respublika bo‘yicha | 14,0 |

| | |
|---|---|
| Qoraqalpog‘iston R. | 25,0 |
| Andijon | 11,2 |
| Buxoro | 12,9 |
| Jizzax | 9,8 |
| Qashqadaryo | 17,7 |
| Navoiy | 22,4 |
| Namangan | 8,3 |
| Samarqand | 11,4 |
| Surxondaryo | 11,4 |
| Sirdaryo | 38,7 |
| Toshkent v. | 15,0 |
| Farg‘ona | 13,1 |
| Xorazm | 10,4 |
| Toshkent sh. | 14,7 |






# 35

## Perinatal parvarishlash/xizmat ko‘rsatish doirasi

## Ilk bor go‘dakni ko‘krakka qo‘yish "teriga-teri" aloqasi, *2023-yil*

**96,3 %**

## 36 Malakali tibbiyot xodimlari tomonidan parvarish qilingan tug‘ilishlar ulushi

2023-YIL: **100 %**

## 37 15 yosh va undan katta yoshdagi aholi orasida tamaki mahsulotlari iste'mol qiluvchilar ulushi*, *2023-yil, %*

| Ayollar | Erkaklar |
|---|---|
| 0,2 | 25,6 |

*uy xo`jaliklari tanlama kuzatuvlari ma`lumotlariga asosan shakllantirildi.

## 38 Ortiqcha vazndan (semizlikdan) aziyat chekayotgan katta yoshlilar ulushi, *2023-yil, %*

| Ayollar | Erkaklar |
|---|---|
| 57,5 | 42,5 |

## 39 Jami OIV/OITS tashxisi bilan kasallangan ayollar orasida 15-49 yoshdagilar ulushi, *2023-yil, %*



| | |
|---|---|
| Respublika bo‘yicha | 79,4 |
| Qoraqalpog‘iston R. | 82,4 |
| Andijon | 70,7 |
| Buxoro | 80,3 |
| Jizzax | 85,4 |
| Qashqadaryo | 79,6 |
| Navoiy | 88,5 |
| Namangan | 74,5 |
| Samarqand | 82,3 |
| Surxondaryo | 87,1 |
| Sirdaryo | 82,3 |
| Toshkent v. | 82,3 |
| Farg‘ona | 73,7 |
| Xorazm | 85,7 |
| Toshkent sh. | 81,2 |

## 40 Retroviruslarga qarshi davolanayotganlar ulushi, *2023-yil, %*

| Ayollar | Erkaklar |
|---|---|
| 46,8 | 53,2 |

## 41 60-64 yoshlilar o‘rtacha umr ko‘rishi ehtimoli yuqori bo‘lganlar, *2023-yil*

| Ayollar | Erkaklar |
|---|---|
| 21,0 yosh | 18,2 yosh |

42

## Yoshi kattalarning vafot etishi

***sabablar va yosh bo‘yicha toifalar kesimida, 2023-yil, kishi***

Yosh guruhlari:

| | 60-64 | 65-69 | 70-74 | 75-79 | 80-84 | 85+ |
|---|---|---|---|---|---|---|
| JAMI | 8197 | 9365 | 9133 | 7188 | 9027 | 9843 |
| | 12340 | 12528 | 10410 | 7415 | 7911 | 6183 |
| Yuqumli va parazitar kasalliklar | 45 | 39 | 36 | 23 | 11 | 14 |
| | 84 | 58 | 27 | 26 | 16 | 18 |
| O‘simtalar | 1175 | 1064 | 776 | 406 | 300 | 170 |
| | 1227 | 1193 | 902 | 446 | 319 | 143 |
| Qon aylanish tizimi kasalliklari | 5271 | 6552 | 6987 | 5772 | 7795 | 8720 |
| | 8662 | 9255 | 8143 | 6048 | 6763 | 5330 |
| Nafas olish organlari kasalliklari | 227 | 254 | 259 | 190 | 183 | 196 |
| | 359 | 314 | 270 | 164 | 189 | 187 |
| Ovqat hazm qilish organlari kasalliklari | 428 | 421 | 272 | 214 | 127 | 56 |
| | 594 | 496 | 300 | 152 | 98 | 55 |
| Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan | 97 | 76 | 50 | 24 | 17 | 24 |
| | 366 | 247 | 151 | 58 | 45 | 18 |
| Boshqa kasalliklardan | 954 | 959 | 753 | 559 | 594 | 663 |
| | 1048 | 965 | 617 | 521 | 481 | 432 |

## 43 Vazir (vazirga tenglashtirilgan) lavozimlarda faoliyat ko‘rsatayotgan ayollar ulushi, *%*

(1-aprel holatiga)




## 44 Milliy parlamentda ayollar egallagan lavozimlar (deputatlik, senatorlik o‘rinlari) ulushi, *2023-yil, %*




**Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi**

2018-yil mos davriga nisbatan o‘sish **+19,4**




**Oliy Majlisi Senati**

2018-yil mos davriga nisbatan o‘sish **+5,0**

**26,7**

Dunyo miqyosida 26,7 % parlament o‘rinlarini ayollar egallagan

"2023-yilgi gender haqida qisqacha hisobot" ("The Gender Snapshot 2023") nashrida qayd etilishicha, mahalliy hukumat o‘rinlarining 35,5 % qismini, boshqaruv o‘rinlarining 28,2 % qismini ayollar band qilmoqda.

Manba: https://unstats.un.org/

## 45

## Ma’muriy-boshqaruv xodimlari tarkibida ayollarning ulushi, *2023-yil, kichik tadbirkorlik subyektlari va NNTsiz, %*



| | |
|---|---|
| Respublika bo‘yicha | 29,2 |
| Navoiy | 18,3 |
| Namangan | 33,0 |
| Samarqand | 34,0 |
| Surxondaryo | 21,3 |
| Sirdaryo | 25,5 |
| Toshkent v. | 31,1 |
| Farg‘ona | 33,7 |
| Xorazm | 30,7 |
| Toshkent sh. | 26,3 |
| Qoraqalpog‘iston R. | 35,2 |
| Andijon | 38,2 |
| Buxoro | 30,4 |
| Jizzax | 23,1 |
| Qashqadaryo | 27,5 |

## 46-47

## Ichki ishlar xodimlari va sudyalar sonidan ayollar ulushi, *%*



MINIMAL KO'RSATKICHLAR

# HUQUQ

## 48 Jinsiy sheriklari tomonidan jinsiy yoki jismoniy zo'rlanishga duchor bo'lgan ayollar soni*, *2023-yil, kishi*



| | |
|---|---|
| Respublika bo'yicha | 28 |
| Toshkent v. | 11 |
| Toshkent sh. | 1 |
| Namangan | 9 |
| Farg'ona | 1 |
| Samarqand | 3 |
| Jizzax | 1 |
| Qoraqalpog'iston R. | 1 |
| Surxondaryo | 1 |

*15-49 yoshdagilar

## 49 Yaqin sherik hisoblanmagan shaxslar tomonidan jinsiy zo'rlanishga duchor bo'lgan ayollar soni*, *2023-yil, kishi*

*15-49 yoshdagilar





| | |
|---|---|
| Respublika bo'yicha | 213 |
| Surxondaryo | 4 |
| Sirdaryo | 7 |
| Qoraqalpog'iston R. | 12 |
| Andijon | 0 |
| Buxoro | 12 |
| Jizzax | 14 |
| Qashqadaryo | 16 |
| Navoiy | 13 |
| Namangan | 15 |
| Samarqand | 39 |
| Toshkent v. | 35 |
| Farg'ona | 17 |
| Xorazm | 8 |
| Toshkent sh. | 21 |

## 50 Ayollarning jinsiy organlarida mayib (majruh) qiluvchi operatsiyalar tarqalganligi /kesishlar

2023-YIL: **0**

## 51 20-24 yoshda turmush qurgan ayollar orasida 18 yoshga to'lmasdan qonuniy yoki noqonuniy turmush qurgan ayollar ulushi, %

2010-YIL: **4,79**

2023-YIL: **0,05**

## 52 O'smir qizlar orasida erta tug'ruqlar, *2023-yil, %*

| Respublika bo'yicha | 3,5 |
|---|---|
| QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI | 1,5 |
| ANDIJON VILOYATI | 4,1 |
| BUXORO VILOYATI | 2,4 |
| JIZZAX VILOYATI | 2,2 |
| QASHQADARYO VILOYATI | 4,0 |
| NAVOIY VILOYATI | 1,9 |
| NAMANGAN VILOYATI | 4,9 |
| SAMARQAND VILOYATI | 5,0 |
| SURXONDARYO VILOYATI | 3,9 |
| SIRDARYO VILOYATI | 2,2 |
| TOSHKENT VILOYATI | 2,5 |
| FARG'ONA VILOYATI | 4,9 |
| XORAZM VILOYATI | 1,7 |
| TOSHKENT SHAHRI | 2,6 |

## 53 Homiladorlik va tug‘ish bo‘yicha nafaqalar uchun ajratilgan mablag‘larning jami ish haqi miqdoriga nisbatan ulushi, *%*




## 54 Korxona va tashkilotlarda ishlovchi homiladorlik, tug‘ish va yosh bolalarni parvarish qilish ta’tilidagi ayollar ulushi, *mulkchilik shakli bo‘yicha, 2023-yil, %*

**Respublika bo‘yicha:** 85,4 DAVLAT — 14,6 NODAVLAT

| | DAVLAT | NODAVLAT |
|---|---|---|
| QORAQALPOG‘ISTON R. | 92,9 | 7,1 |
| ANDIJON | 93,1 | 6,9 |
| BUXORO | 86,5 | 13,5 |
| JIZZAX | 96,0 | 4,0 |
| QASHQADARYO | 94,4 | 5,6 |
| NAVOIY | 66,3 | 33,7 |
| NAMANGAN | 97,9 | 2,1 |
| SAMARQAND | 92,8 | 7,2 |
| SURXONDARYO | 91,5 | 8,5 |
| SIRDARYO | 96,9 | 3,1 |
| TOSHKENT V. | 79,0 | 21,0 |
| FARG‘ONA | 90,7 | 9,3 |
| XORAZM | 95,9 | 4,1 |
| TOSHKENT SH. | 64,5 | 35,5 |

# FOYDALI HAVOLALAR

| | |
|---|---|
| gender.stat.uz | Statistika agentligining gender statistikasi bo'yicha rasmiy veb-sahifasi |
| data.egov.uz | O'zbekiston Respublikasi Ochiq ma'lumotlar portali |
| stat.uz | Statistika agentligining rasmiy veb-sahifasi |
| siat.stat.uz | Statistika integrallashgan axborot tizimi |
| aholi.stat.uz | Statistika agentligining aholi statistikasi bo'yicha rasmiy veb-sahifasi |
| nsdg.stat.uz | O'zbekistonning milliy barqaror rivojlanish maqsadlari (NSDG) bo'yicha statistik ma'lumotlar veb-sahifasi |
| data.un.org | BMT Statistika bo'limi ma'lumotlar portali |
| unstats.un.org | BMT Statistika bo'limi (UNSD) rasmiy veb-sahifasi |
| population.un.org | BMTning Aholi statistikasi bo'yicha ma'lumotlar portali |
| unwomen.org | BMT Ayollar tashkiloti (UN Woman) rasmiy veb-sahifasi |
| ilo.org/gender-equality | XMTning Gender tengligi va ayollar huquqlari bo'yicha rasmiy veb-sahifasi |
| genderdata.worldbank.org | Jahon Bankining Gender statistikasi bo'yicha rasmiy veb-sahifasi |
| who.int/data | JSSTning Sog'liqni saqlash bo'yicha statistik ma'lumotlar va tahlillarni taqdim etadigan rasmiy veb-sahifasi |



# O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR VA ERKAKLAR: FAKT VA RAQAMLAR


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

100170, Toshkent sh.,
Mustaqillik shoh ko‘chasi, 63

@uzstataxborot

71 203 80 00